Infraqizil (IQ) spektroskopiya biologik namunalarning kimyoviy tarkibini o‘rganishda keng qo‘llaniladigan, tejamkor va informatsion usullardan biridir. Mazkur usul molekulalarda mavjud bo‘lgan funksional guruhlarning tebranish energiyasini qayd etish orqali ularning struktura va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Meva tarkibidagi uglevodlar, organik kislotalar, pektin moddalari va boshqa bioaktiv komponentlar IQ spektrda o‘ziga xos yutilish chiziqlari ko‘rinishida aks etadi. Shu bois IQ spektroskopiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tahlil qilish, ularning sifatini baholash va navlarni farqlashda keng qo‘llanmoqda.Behi va olma mevasi tarkibi o‘xshash bo‘lishiga qaramay, ularning kimyoviy komponentlari miqdori va strukturaviy xususiyatlarida farqlar mavjud. Bu farqlar IQ spektrlarida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqotda behi namunasi uchun olingan IQ yutilish spektrlari o‘rganilib, olma namunasi bilan taqqoslanishi amalga oshirildi. Ushbu tahlil mevalarning tarkibiy o‘ziga xosliklarini aniqlash va IQ spektroskopiyaning diagnostik imkoniyatlarini baholashga qaratilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Pektin tarkibida D-galakturon kislotasi bo‘lib, u o‘zining gel hosil qilish xususiyati bilan ajralib turadi, pektin so‘zining ma’nosi ham (yun. pektos — birikkan, qovushgan, muzlagan) uning shu xossasidan kelib chiqqan. Ushbu polisaxarid qadoqlash materiallari uchun biopolimer sifatida ishlatilishi mumkin. Adabiyotlarda pektinning tabiiy manbalari va uni ajratib olish texnologiyalari keng yoritilgan[1, 2]. Pektin hujayra devorining birlamchi kengayishi va o‘simliklarning o‘sishiga imkon beruvchi muhim hujayra devori polisaxaridir. [3].




**1-rasm. D-galakturon kislota**

IQ-spektroskopiya pektinning kimyoviy tuzilishini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llaniladigan analitik usullardan biridir. Ushbu metod molekulalarning infraqizil nurlanishni yutishi va bunga javoban xarakteristik(funksional) guruhlarning tebranish tamoyiliga asoslanadi. Molekula tarkibidagi har bir funksional guruh o‘ziga xos chastotada tebranadi, natijada spektrda ma’lum yutilish polosalari paydo bo‘ladi.




ISSN 3030-3907

IQ-spektrlarning shakllanishi aynan mana shu kimyoviy bog‘lar tabiatiga bog‘liq bo‘lib, har bir polosalar ma’lum bog‘ turi yoki funksional guruhning mavjudligini ko‘rsatadi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, pektin tarkibidagi asosiy funksional guruhlar — karboksil, gidroksil, metoksil va glikozid bog‘lari infraqizil spektrda juda aniq namoyon bo‘ladi. Shuning uchun IQ-spektroskopiya pektinning identifikatsiyasi, uning xomashyodan ajratilgan tabiiy shaklini sanoat pektinlari bilan taqqoslash hamda strukturaviy farqlarni aniqlashda juda samarali usul hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ham behi pektinining IQ-spektri o‘lchab, undagi yutilish cho‘qqilari olma pektinining spektri bilan solishtirildi. Natijada ikkala pektin turiga xos bo‘lgan asosiy funksional guruhlar chastotalari aniqlanib, ularning o‘ziga xos strukturaviy farqlari tahlil qilindi.

**Tadqiqotda quyidagi usul qo‘llanildi:**

Xomashyo tayyorlash – bexi mevasidan qobiq va yadro ajratildi, so‘ng maydalandi. Ekstraksiya – maydalangan xomashyoga 0,5% HCl eritmasi qo‘shilib, 80°C haroratda 2 soat davomida qizdirildi. Filtrlash va tozalash – hosil bo‘lgan eritma filtrlab olindi va etanol bilan cho‘ktirish orqali pektin ajratib olindi.Olingan behi pektinning IQ- spektri Shimadzu IR Spirit-LX spektrometrda 4000–400 $sm^{-1}$ oralig‘ida o‘rganiladi.(2- rasm.)





**2- rasm. Behi pektinning IQ- spektri**

**IQ SPEKTR TAHLILI**

Eng informatsion sohalar **3271.82 $sm^{-1}$** (O–H gidroksil) Bu keng cho‘qqi pektindagi: gidroksil guruhlari, suv molekulalarining vodorod bog‘lariga mos


ISSN 3030-3907

keladi. Polisaxaridlarning IQ-spektrlari uchun juda xarakterli, **1728.14 $sm^{-1}$(metilesterlangan** karboksil guruhlarini tavsiflovchi), bu pektin spektrining eng muhim chizig‘i. Bu pik shuni ko‘rsatadi: pektin tarkibida **galakturon kislota metilesterlari** mavjud, bu *pektinning sifatli ajratilganini* va kimyoviy tuzilmasi yaxshi saqlanganini bildiradi**. 1650.27 $sm^{-1}$ ( C=O** guruhiga bog‘liq) Bu pik ko‘pincha: qolgan namlik, pektinning karboksil guruhlaridagi deformatsion tebranishlar bilan bog‘liq bo‘ladi , **1225.14 $sm^{-1}$** ( C–O–C glikozid bog‘larini) Bu chiziq **glikozid bog‘lari**ga tegishli bo‘lib, polisaxaridlar uchun juda xarakterli. O–H, C–O–C, C–O, C–H tebranishlari **tarkibning toza va aniq pektin ekanini** tasdiqlaydi. Umuman olganda, spektr **yuqori sifatda ajratilgan pektin**ga mos keladi.Quyida **ikkinchi spektr olma pektinining(3-rasm) IQ-spektri bo‘lib, Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, *Azanza garckeana* mevasi farmatsevtika sanoati, oziq-ovqat uchun potentsial xom ashyo shuningdek suvni qo‘rg‘oshin va simob kabi metallarni olib tashlash ya’ni suvni tozalash maqsadlarida pektin manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin.** [4] **Birinchi behi pektini spektri bilan olmaning spektri** o‘rtasidagi **batafsil ilmiy solishtirma tahlil** qilish orqali turli tabiiy homashyolardan olingan pektinning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rish imkoniyatlarini beradi




**3-rasm. Olma pektini**

**Asosiy piklar taqqoslanishi**

| Funksional guruh | **Behi** pektin ($cm^{-1}$) | Olma pektini ($cm^{-1}$) | Izoh |
|---|---|---|---|
| **O–H** | 3271.8 | **3438.0** | Olma pektinida O–H piki yuqoriroq, H-bog‘lari zaifroq |



ISSN 3030-3907

| | | | |
|---|---|---|---|
| **C=O (metilesterlangan pektin)** | 1728.1 | **1750.3** | Olma pektini kuchli esterlangan (pik yuqoriroq) |
| **$COO^-$ deformatsiyasi** | 1650.2 | **1636.1** | Olmada karboksil ionlashuvi kamroq |
| **C–O–C glikozid bog‘lari** | 1225.1 | **1105.6** | Olma pektinida pastroq tebranish |

**Xulosa**

Ushbu tadqiqotda behi pektini va olma pektinlaridan olingan infraqizil yutilish spektrlari o‘zaro solishtirilib, ularning kimyoviy tarkibi, funksional guruhlarining tebranish xususiyatlari va esterifikatsiya darajalari tahlil qilindi. Olingan natijalar pektinlarning molekulyar tuzilishi va sifat ko‘rsatkichlari turlicha ekanini ko‘rsatdi.Pektinning sifatini belgilovchi asosiy pik – **C=O** behi pektinida, olma pektinida esa 1750 $sm^{-1}$ da qayd etildi. Ushbu farq shuni ko‘rsatadiki, **olma pektinining esterifikatsiya darajasi eng yuqori**, behi pektinida esa o‘rtacha darajada. Ester guruhlari ko‘pligi pektinning funksional xossalarini, xususan, gel hosil qilish qobiliyatini oshiradi. 1600–1660 $sm^{-1}$ oralig‘idagi $–COO^-$ va –COOH guruhlariga tegishli vibratsiyalar behi pektinida 1650 $sm^{-1}$ atrofida kuchliroq namoyon bo‘ldi, bu namlikning ko‘proq saqlanganligini ko‘rsatadi. Olma pektinida esa 1636 $sm^{-1}$ dagi pik ionlashgan karboksil guruhlarining barqarorroq holatini bildiradi. Glikozid bog‘lariga xos **C–O–C pik** behi pektinlarida 1225 $sm^{-1}$ da, olma pektinida esa 1105 $sm^{-1}$ da kuzatildi. Bu olma pektinining molekulyar qurilishi boshqa namunalar bilan solishtirganda energetik jihatdan farqlanishini ko‘rsatadi. 1000–1020 $sm^{-1}$ oralig‘idagi polisaxaridlarga xos fingerprint zonasi barcha namunalar uchun umumiy bo‘lib, ularning pektin tabiatiga xosligini tasdiqlaydi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Sabirova H., & Nurmatova M. (2024). PEKTIN MODDALARINI IQ-TADQIQOTI. Farg‘ona Davlat Universiteti, 30(3), 395. Retrieved from https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4583

2. Muminov, N., & Abdirayimov, A.. (2023). OQ BOSHLI KARAM (BRASSICA OLERACEA VAR. CAPITATA L.) TARKIBIDAGI PEKTIN MODDALARINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 4), 74–80. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/13340

3. Bidhendi AJ, Geitmann A (January 2016). "Relating the mechanics of the primary plant cell wall to morphogenesis" (PDF). Journal of Experimental Botany. 67 (2): 449-

461. doi:10.1093/jxb/erv535. PMID 26689854. Archived (PDF)

4. from the original on 13 January 2018. Retrieved 30 May 2020



ISSN 3030-3907

5. J. M. Joel, J. T. Barminas, E. Y. Riki, J. M. Yelwa, F. Edeh World scientific news an international scientific Journal. EISSN 2392-2192 EXTRACTION AND CHARACTERIZATION OF HYDROCOLLOID PECTIN FROM GORON TULA (AZANZA GARCKEANA) FRUIT p-157-171
6. Nurmatova, M.M. (2023). Study of the formation of hydrogels based on polygalacturonic acid. ActaCAMU Scientific Journal, 3, 129-136



ISSN 3030-3907

# AN’ANAVIY DARS MASHG‘ULOTLARINING O‘QUV JARAYONIDAGI O‘RNI

**Karimov Ilhom Normamatovich**
*Qarshi davlat texnika universiteti dotsent v.b.*
**Alikulova Saodat Muxitdinovna**
*Qarshi davlat texnika universiteti assistant*

**Annotatsiya.** An’anaviy dars mashg‘uloti — bu o‘quv jarayonining eng ko‘p tarqalgan va tarixan shakllangan turi bo‘lib, unda o‘qituvchi rahbarligida bilim, ko‘nikma va malakalar tizimli ravishda talabalarga yetkaziladi. Ushbu shaklning asosiy mohiyati o‘qituvchining markaziy rolida, talabalarning esa bilimlarni tinglash, tushunish va mustahkamlash orqali o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi. An’anaviy darsda o‘quv jarayoni qat’iy tuzilma asosida tashkil etiladi: yangi mavzuni tushuntirish, misol va mashqlar orqali mustahkamlash hamda o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** axborot, ta’lim-tarbiya, taklif, ko‘nikma, malaka, muammo, yechim, material, metod, sifat tahlil samaradorlik.

**Аннотация.** Традиционный урок – наиболее распространённый и исторически сложившийся тип образовательного процесса, в котором знания, умения и навыки систематически передаются учащимся под руководством учителя. Суть этой формы заключается в центральной роли учителя и усвоении знаний учащимися через слушание, понимание и закрепление. На традиционном уроке образовательный процесс организован на основе строгой структуры: он включает этапы объяснения новой темы, её закрепления на примерах и упражнениях, а также контроля уровня усвоения.

**Ключевые слова:** информация, образование, предложение, навык, квалификация, проблема, решение, материал, метод, анализ качества, эффективность.

**Annotation.** The traditional lesson is the most widespread and historically established form of the educational process, in which knowledge, skills, and abilities are systematically transmitted to students under the guidance of a teacher. The essence of this form lies in the central role of the teacher and the acquisition of knowledge by students through listening, understanding, and reinforcement. In a traditional lesson, the educational process is organized based on a strict structure: it includes the stages of explaining a new topic, consolidating it through examples and exercises, and controlling the level of mastery.

**Key words:** information, education, offer, skill, qualification, problem, solution, material, method, quality analysis, efficiency.

## Kirish



ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsensiyasiga ko‘rib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga quyiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni Talabalarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmokda.

Bu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish. ularni kichik gurux va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud muloxazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida axamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida pedagoglar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:

An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida talabalarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, talabalar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda so‘zlashdan iboratdir.

An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik oliy ta’lim tizimidagi faqat ma’ruza mashg‘ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra, «yetkazib beruvchi» rolida endi o‘qituvchi emas, balki talaba namoyon bo‘ladi. Talaba, asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning


ISSN 3030-3907

fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo‘lib qoladi. Bir qarashda talabalar tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq, psixologik tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, bu tarzda qabul qilingan bilim (ma’lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra, shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. YA’ni: shaxs manbani o‘zi o‘qiganida 10 %; ma’lumotni eshitganida 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 %; ma’lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot) larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekan.

An’anaviy ta’lim berishdan farqli o‘laroq, interfaol o‘qitish «ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahsmunozara, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, «o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi»ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab- quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi».

An'anaviy ta'lim - bu o‘qituvchiga qaratilgan, muayyan muddatga mo‘ljallangan ta'lim jarayonidir, unda o‘qitishning an'anaviy shakllari, metodlari va vositalari majmuidan foydalaniladi. Bu yondashuv ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar passiv tinglovchi rolini bajaradi.

**O‘qituvchiga qaratilgan jarayon:**

Ta'lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi faoliyatiga, o‘z bilimini o‘quvchilarga uzatishga qaratiladi.

**An'anaviy usullar:**

O‘qitishning an'anaviy shakllari, metodlari (masalan, ma'ruza) va vositalari (kitoblar, doska) qo‘llaniladi.

**Maqsadga erishish:**

Yuqorida sanab o‘tilgan vositalar yordamida ta'lim-tarbiya maqsadiga erishish nazarda tutiladi.

**An’anaviy dars mashg‘uloti to‘g‘risida**

**Kirish**



ISSN 3030-3907

An’anaviy dars mashg‘uloti — bu ta’lim jarayonining eng muhim, sinovdan o‘tgan va samarali shakllaridan biridir. U asosan o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimli tarzda yetkazishga qaratilgan. Tarixan shakllangan bu usul o‘quv jarayonini rejalashtirish, tartibga solish va nazorat qilish imkonini beradi. An’anaviy darsning asosiy xususiyati — o‘qituvchining yetakchi o‘rni va o‘quvchilarning faol tinglovchi sifatida bilimlarni qabul qilishidir. Ushbu yondashuvda o‘quvchilarni bilimga yo‘naltirish, mavzuni tushuntirish, misollar orqali mustahkamlash hamda nazorat qilish kabi bosqichlar qat’iy tartibda amalga oshiriladi. Bu jarayon o‘quvchilarda intizom, diqqat, eslab qolish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Garchi zamonaviy ta’limda interfaol usullar keng joriy etilayotgan bo‘lsa-da, an’anaviy dars mashg‘uloti o‘zining samaradorligi va puxta tizimliligi bilan hali ham dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda.

**Asosiy qis**

**1. An’anaviy dars mashg‘ulotining mohiyati**

An’anaviy dars mashg‘uloti — bu o‘qituvchining boshchiligida talabalar guruhiga bilim berish jarayoni bo‘lib, u qat’iy tuzilishga, rejalashtirilgan ketma-ketlikka va vaqt me’yoriga ega. Bunday darslarda o‘qituvchi asosiy axborot manbai, talaba esa bilim oluvchi sifatida ishtirok etadi.

Bu dars shakli **darsning to‘rt bosqichiga** asoslanadi:

1. **Tashkiliy qism** – talabalarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash.
2. **O‘tgan mavzuni takrorlash** – ilgari o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash.
3. **Yangi mavzuni tushuntirish** – o‘qituvchining asosiy ma’ruza yoki tushuntirish qismi.
4. **Mustahkamlash va nazorat** – savol-javob, amaliy topshiriqlar, baholash.

An’anaviy darsning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining tayyorgarligiga, dars rejasining puxtaligiga va talabalarni faol ishtirok etishga undash usullariga bog‘liq bo‘ladi.

**2. An’anaviy darsning afzalliklari**

An’anaviy dars mashg‘ulotining bir qancha ijobiy jihatlari mavjud:

- **Tizimlilik** – o‘quv jarayoni qat’iy tartibda, reja asosida olib boriladi.
- **Tushunarlilik** – o‘qituvchi har bir mavzuni bosqichma-bosqich izohlaydi, murakkab masalalarni soddalashtirib tushuntiradi.
- **Nazorat imkoniyati** – talabalarning bilim darajasi o‘qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilinadi.
- **Jamoaviy o‘rganish muhiti** – talabalar o‘zaro fikr almashadi, bir-biridan o‘rganadi.
- **Vaqt va tartib** – darsning aniq davomiyligi talabalarda intizom va mas’uliyatni shakllantiradi.


ISSN 3030-3907

Bu usul ayniqsa **boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida** samarali bo‘lib, talabalarning diqqatini jamlash va yangi mavzuni oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

**3. Kamchiliklari va muammolari**

Shunga qaramay, an’anaviy dars mashg‘ulotida ayrim cheklovlar ham mavjud:

- O‘qituvchi faol, talaba esa passiv rol o‘ynaydi;
- Talabalarning individual qobiliyatlari to‘liq ochilmaydi;
- Axborotni o‘zlashtirish bir xil sur’atda amalga oshmaydi;
- Zamonaviy texnologiyalar kam qo‘llaniladi.

Bugungi kunda bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar an’anaviy darsni **innovatsion usullar** bilan uyg‘unlashtirishmoqda. Masalan, interfaol metodlar, guruhli ishlar, multimedia taqdimotlari darsga qiziqishni oshiradi.

**4. An’anaviy darsni takomillashtirish yo‘llari**

An’anaviy dars mashg‘ulotini samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

- Dars rejasini puxta tuzish va vaqtni to‘g‘ri taqsimlash;
- Nazariy bilimlarni amaliy mashqlar bilan uyg‘unlashtirish;
- Talabalarni savol-javob, test, muhokama orqali faol ishtirok ettirish;
- Vizual vositalardan (sxema, jadval, video) foydalanish;
- Baholash jarayonini shaffof va adolatli tashkil etish.

Agar o‘qituvchi an’anaviy darsni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitsa, bu shakl hali ham eng samarali o‘qitish usuli bo‘lib qoladi

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, an’anaviy dars mashg‘uloti – ta’lim tizimining asosi bo‘lib, yillar davomida o‘zining samaradorligini isbotlab kelmoqda. U talabalarda bilim, ko‘nikma va intizomni shakllantiradi, muntazam o‘rganish odatini paydo qiladi. Shu bilan birga, an’anaviy dars mashg‘ulotini takomillashtirish va uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifati yuqori darajaga ko‘tarilishi an’anaviy darsni yangicha yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Ya’ni, **an’anaviy shakl – bu poydevor, innovatsiya esa uning mustahkamlovchi qismi** bo‘lishi kerak.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.N. Intellectual competency development for the students of technical higher education institutions // Central Asian Problems of Modern Science and Education. September 2021. pp.106 – 117.

2. Karimov I.N. Kompetentlik va kasbiy kompetentlik tushunchalari mohiyati va ilmiy tahlili // Ta’lim, fan va innovatsiya. 2020/1-son. 21-26 b.



ISSN 3030-3907

3. Karimov I.N. Ta’lim jarayonida talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirish // Zamonaviy ta’lim jurnali № 2 (87) 2020. 16-21 b.
4. Karimov I.N. Intellektual kompetensiya va uning ta'lim jarayonida rivojlanishi // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022. 55-59 b.
5. Karimov I.N. O‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish // V международная научно-практическая конференция наука и образование в современном мире: вызовы XXI veka. - Нур-султан, Казахстан, - 2019. - С. 22-25.
6. Karimov I.N. Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda ta’lim sifatini oshiruvchi omillar tasifi. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 4/1-сан 2024. Нөкис. 145-150 b.
7. Karimov I.N. Development of students’ intellectual competencies in the learning process. // Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации. выпуск-55 31 - январ переяслав 2020 г. С.254-258.
8. Karimov I.N. Ta’lim innovatsiyalari asosida talabalarda bilish mustaqilligini rivojlantirishning psixologik muammolari. // O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim” konferensiya to‘plami. №1 (3-qism) 26-mart 2020. 319-322 bet.
9. Karimov I.N. Pedagogik texnologiyalardan faol foydalanish ta’lim innovatsiyasi sifatida // Samarqand viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand-2020 y. 83-88 b.
10. Karimov I.N. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy kreativlik faoliyatini tashkil etish // «Yoshlarda kitobxonlik tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va dolzarbligi» (Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami) 5-6 may Qarshi – 2021 yil. 405-411 б.
11. Karimov I.N. Мотивация студентов к самостоятельному мышлению // Среднее профессиональное образование. Октябрь № 10 (314) 2021. С.25-28.
12. Karimov I.N. Formation of creative abilities of teachers in future professional education // Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации. Переяслав – 2021. выпуск-76. 30 октября 2021 года. С.148-150.
13. Karimov I.N. Ta’lim ishtirokchilarining intellektini oshiruvchi axborot ta’minotining samaradorligi // “Energiya va resurs tejamkor innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami 23-24-sentabr 2022-yil. 700-703 б.
14. Karimov I.N. Talabalarda intellektual samaradorlikni oshirishda innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanishning nazariy asoslari. “Ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: dolzarbligi, muammolari va


ISSN 3030-3907

istiqbollari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024 yil 26-27- aprel.



ISSN 3030-3907

# REDUCING VIBRATIONS IN WORM GEAR DRIVES MORE EFFECTIVELY

**Oripov Dostonjon**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
*E-mail: orrudos@mail.ru*
**Beknazarov Jasur**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
*E-mail: j-beknazarov@mail.ru*
**Ravshanov Jamshid**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
**Isayev Doniyor**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
**Qodirboyev Rustam**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
*E-mail: rus.uz@internet.ru*
**Hasanov Dilshodbek**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*

**Abstract.** Worm gear drives are widely used in many mechanical systems due to their compact structure and high torque transmission capability. However, traditional designs often suffer from drawbacks such as excessive friction, backlash, and vibration. This study investigates the potential for improving the dynamic characteristics of worm gear mechanisms through the integration of elastic elements. A comprehensive analysis was performed, including structural parameters, material selection, load evaluation, stiffness assessment, and efficiency analysis. It was found that installing a 3 mm thick elastic element in the bearing transmission zone significantly enhances the system's damping performance. Experimental results show that the use of the elastic element reduces vibration velocity by 10–20%, decreases maximum acceleration by up to 15%, and lowers displacement amplitude by up to 20%. The most pronounced improvement was observed in the horizontal direction. The findings confirm that the proposed design solution has high potential for increasing the efficiency and reliability of worm gear transmissions.

**Key words:** Worm gear transmission, Vibration reduction, Elastic element, Damping, Shaft load, Dynamic characteristics.

**Annotatsiya:**Chervyakli uzatmalar ixcham tuzilishi va yuqori moment uzatish qobiliyati sababli ko‘plab mexanik tizimlarda keng qo‘llaniladi. Biroq an’anaviy konstruksiyalar ortiqcha ishqalanish, lyuft va vibratsiya kabi kamchiliklarga ega. Ushbu tadqiqotda chervyakli uzatma mexanizmlarining dinamik xususiyatlarini elastik elementlarni integratsiya qilish orqali yaxshilash imkoniyatlari o‘rganildi.


ISSN 3030-3907

Konstruktiv parametrlar, material tanlovi, yuklama tahlili, qattiqlik va samaradorlikni baholash kabi omillar kompleks ravishda tahlil qilindi. Podshipnik uzatish zonasiga qalinligi 3 mm bo‘lgan elastik elementni o‘rnatish tizimning damping xususiyatlarini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Eksperimental natijalar elastik element qo‘llanilganda vibratsiya tezligi 10–20% ga, maksimal tezlanish 15% gacha, siljish amplitudasi esa 20% gacha kamayganini ko‘rsatdi. Eng katta ijobiy ta’sir gorizontal yo‘nalishda kuzatildi. Tadqiqot natijalari taklif etilgan konstruktiv yechim chervyakli uzatmalar samaradorligi va ishonchliligini oshirishda yuqori potensialga egaligini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Chervyakli uzatma, Vibratsiyani kamaytirish, Elastik element, Damping, Valga tushadigan yuklama, Dinamik xususiyatlar.

**Аннотация.** Червячные передачи широко применяются во многих механических системах благодаря их компактной конструкции и высокой способности передавать крутящий момент. Однако традиционные конструкции часто имеют недостатки, такие как повышенное трение, люфт и вибрации. В данном исследовании рассматривается возможность улучшения динамических характеристик червячных механизмов путем интеграции эластичных элементов. Проведен комплексный анализ, включающий оценку конструктивных параметров, выбор материалов, анализ нагрузок, оценку жесткости и эффективности. Установлено, что установка эластичного элемента толщиной 3 мм в зоне подшипниковой передачи значительно повышает демпфирующие свойства системы. Экспериментальные результаты показали, что применение эластичного элемента снижает скорость вибраций на 10–20%, уменьшает максимальные значения ускорения до 15% и снижает амплитуду перемещения до 20%. Наиболее выраженный положительный эффект наблюдался в горизонтальном направлении. Полученные результаты подтверждают высокий потенциал предложенного конструктивного решения для повышения эффективности и надежности червячных передач..

**Ключевые слова:** червячная передача, снижение вибраций, эластичный элемент, демпфирование, нагрузка на вал, динамические характеристики.

## Introduction

In contrast to conventional spur gears, which rely on several straight-toothed wheels, worm gears have a much simpler layout, consisting of only one helical and spiral-shaped element. These mechanisms are widely used in industrial equipment that may operate in fluid environments, such as hydraulic machines, where heavy loads must be lifted with few components. Although gears are common in power transmission, they are not always ideal because frictional heating and backlash can result in notable energy losses.[4] Traditional worm gears, in particular, suffer from



ISSN 3030-3907

major drawbacks—including high friction losses, backlash, and undesirable vibrations. Excessive friction causes overheating and wasted power, while backlash is unacceptable in high-precision applications. Issues like noise and vibration also accelerate wear and may lead to system failure. To address these challenges, this article explores the use of elastic components within worm gear mechanisms. Elements such as springs and rubber dampers can absorb shocks, reduce backlash, and improve the overall functioning of the drive. Integrating such elastic parts helps minimize the negative effects of misalignment and dynamic loading, enabling smoother and longer-lasting operation. [1]The development of effective design and analytical methods for worm drives with elastic elements requires several sequential steps. This section outlines the direction of these studies while considering the inherent structural limitations of worm gear systems.




**FIGURE 1. Curvilinear shaft with elastic elements[1]**

**Materials and methods**

The outcomes of the study and the methodologies applied must be presented in a clearly organized report that includes project parameters, experimental findings, and proposed enhancements. Throughout the investigation, various disciplines were utilized, including advanced mathematics, machine and mechanism theory, vibration theory, machine dynamics, and testing techniques commonly used in mechanical and technological engineering.[3]

**Results and discussion**

During the study, the vibration parameters of the **1Ч-63А** worm gear were measured, and its kinematic and dynamic characteristics were calculated. Based on the results, the introduction of a flexible (elastic) element made of **polyurethane (Shore A 90, 3 mm thick, TU 2513-006-01296014-2015)** was recommended. The elastic element was incorporated into the design at the **bearing mounting location** (on the outer layer of the bearing housing). Measurements of the system's vibrations were taken using the **VIBXPERT II** portable professional vibroanalyzer both before and after installation to enable comparison.

The experimental prototype of the newly designed worm gear with a variable-parameter polyurethane damper demonstrated the following positive characteristics during testing:

1. **Absorption of mechanical shocks and noise reduction.**
2. **Smooth operation of the mechanism and enhanced operational efficiency.**
3. **Improved meshing and alignment between worm gear pairs.**



ISSN 3030-3907

**Technological Test Results**

The tests conducted on the **1Ч-63А** worm gear in its new design, equipped with a variable-parameter polyurethane damper, demonstrated the following results:

- Stationary vibrations of varying amplitudes were observed in the vertical and horizontal directions.
- The addition of the polyurethane element significantly improved shock absorption and reduced noise during operation





**FIGURE 2.**





**FIGURE 3.**

The proposed new design of the worm gear transmission effectively absorbs vibrations in all three directions: horizontal, vertical, and along the shaft axis. The



ISSN 3030-3907

introduction of the elastic element significantly reduces vibration amplitudes, resulting in:

- **Horizontal vibrations:** The most pronounced reduction is observed in the horizontal direction, where lateral oscillations are efficiently damped by the elastic element, leading to improved alignment and stability of the shaft during operation.
- **Vertical vibrations:** Vertical vibrations are also noticeably diminished, which reduces the dynamic load on the gearbox housing and minimizes the risk of resonance in the vertical plane.
- **Axial (shaft) vibrations:** Axial vibrations along the shaft are effectively mitigated, contributing to smoother torque transmission and reducing wear on bearing surfaces.

As a result of these improvements, the service life of the transmission components is extended, operational reliability is increased, and maintenance requirements are reduced.[2] This demonstrates that the proposed construction not only enhances the dynamic performance of the system but also contributes to its long-term durability and efficiency.

**Conclusion**

The introduction of an elastic element with a thickness of 3 mm in the bearing transmission zone increases the damping characteristics of the system and reduces the vibration load on the gearbox housing and shaft. The results confirm the effectiveness of the proposed design. According to the measured vibration values, before and after the introduction of the elastic element:

- The vibration velocity decreased by 10–20%;
- The maximum acceleration values were reduced by up to 15%;
- The displacement amplitude decreased by up to 20%;
- The most noticeable effect was observed in the horizontal direction.

**REFERENCES**

1. Oripov, D. R., Beknazarov, J., Qodirboyev, R., & Hasanov, D. (2025, October 16–17). Development of an improved design of worm gear transmission by incorporatingan elastic element. International Conference on System Thinking in EngineeringTechnologies for Problem Solving, 428. Navoi State University of Mining andTechnologies, Navoi, Uzbekistan. https://doi.org/10.5281/zenodo.172814442.

2. Мырзатаева, Г., Отепов, П., Кодирбоев, Р., & Сагидуллаевич, К. И. (2024).ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЧНОСТИ РЕЗЬБОВЫХ ФРЕЗ: https://doi.org/10.5281/zenodo. 11275217. International Journal of scientific and AppliedResearch, 1(2), 264-266.

3. Juraev, A.D., Davidbayev, B.N., Juraev, N.N., Beknazarov, J.K., E3S Web ofConferences, 414, 06005 (2023)



ISSN 3030-3907

4. Doniyor T. I. Ion nitriding and surface alloying of H13A hard alloy cutting tools //Zaštita materijala. – 2023. – T. 64. – №. 2. – C. 161-169.



ISSN 3030-3907

# DARS JARAYONIDA GAMIFIKATSIYANI QO‘LLASH UCHUN MOBIL O‘YIN-DASTUR ISHLAB CHIQISH VA O‘QUV MOTIVATSIYASIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH

**Murodova Zarina Rashidovna**
*Buxoro davlat texnika universiteti “AKT” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*
**Muradova Firuza Rashidovna**
*Buxoro davlat texnika universiteti “AKT” kafedrasi professori*
**Sodiqova Sevara Latif qizi**
*Osiyo Xalqaro univeristeti magistranti*

**Annotatsiya.** Zamonaviy ta’limda gamifikatsiya – o‘yin elementlarini (ballar, reytinglar, mukofotlar) dars jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish usuli sifatida keng tarqalmoqda. Mobil o‘yin-dasturlar bu jarayonni interaktiv va qulay qiladi, ayniqsa yosh avlod uchun. Ushbu maqola mobil o‘yin prototipini ishlab chiqish va uning o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini IMRAD strukturasida tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Gamifikatsiya, Mobil o‘yin-dastur, O‘quv motivatsiyasi, Dars jarayoni,Ta’lim texnologiyalari, Unity engine, Interaktiv o‘qitish, Motivatsiya tahlili, O‘quvchilar ishtiroki, Raqamli ta’lim, IMRAD struktura, Eksperimental tadqiqot, Statistika tahlili, Dekart koordinatalari, ta’limiy dastur, Python, interaktiv o‘qitish, geometriya.

**Annotation.** Gamification in modern education is becoming widespread as a method of increasing students’ motivation by integrating game elements (points, rankings, rewards) into the learning process. Mobile game applications make this process interactive and convenient, especially for the younger generation. This article analyzes the development of a mobile game prototype and its impact on learning motivation within the IMRAD structure.

**Keywords:** Gamification, Mobile game application, Learning motivation, Learning process, Educational technologies, Unity engine, Interactive learning, Motivation analysis, Student engagement, Digital education, IMRAD structure, Experimental research, Statistical analysis, Cartesian coordinates, educational software, Python, interactive teaching, geometry.

**Аннотация.** Геймификация в современном образовании становится широко распространённым методом повышения мотивации учащихся за счёт включения игровых элементов (баллы, рейтинги, награды) в учебный процесс. Мобильные игровые приложения делают этот процесс интерактивным и удобным, особенно для молодёжи. В данной статье анализируется разработка прототипа мобильной игры и его влияние на учебную мотивацию в структуре IMRAD.



ISSN 3030-3907

**Ключевые слова:** Геймификация, мобильное игровое приложение, учебная мотивация, учебный процесс, образовательные технологии, unity engine, интерактивное обучение, анализ мотивации, участие учащихся, цифровое образование, экспериментальное исследование, статистический анализ, декартовы координаты, образовательная программа, python, интерактивное обучение, геометрия.

**Kirish**

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va dars jarayonini qiziqarli qilish masalasi dolzarb bo‘lib kelmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha o‘quvchilarni zeriktirib, ularning faolligini pasaytiradi. Shu sababli, gamifikatsiya (o‘yin mexanizmlarini ta’limga qo‘llash) keng tarqalmoqda. Ushbu maqolada dars jarayonida gamifikatsiyani qo‘llash uchun mobil o‘yin-dastur ishlab chiqish jarayoni va uning o‘quv motivatsiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqsad – ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qilish yo‘llarini ko‘rsatish. Interaktiv dasturiy vositalar bu muammoni hal qilishning samarali yo‘lidir: o‘quvchi nazariyani o‘qigach, darhol o‘zi koordinatalarni kiritib, grafikani ko‘ra oladi va xatolarini real vaqtda tuzatadi.Shu sababdan mavzuni **interaktiv dastur** orqali o‘rgatish samaradorlikni oshiradi. Gamifikatsiya – bu o‘yin elementlarini (ballar, reytinglar, badge’lar, darajalar, musobaqalar) nod-o‘yin muhitlarga, xususan ta’limga integratsiya qilish usuli. Bu usul o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Ta’limda gamifikatsiya quyidagi afzalliklarga ega:

**Motivatsiyani oshirish**: O‘yin orqali mu vaffaqiyatni his qilish.– bu gamifikatsiyaning asosiy mexanizmi bo‘lib, o‘yin elementlari (ballar, darajalar, mukofotlar) orqali insonning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga asoslangan. O‘yinlarda tez-tez erishiladigan kichik muvaffaqiyatlar (masalan, level o‘tish) o‘quvchi yoki foydalanuvchiga "g‘olib" hissi beradi, bu esa keyingi harakatlarni rag‘batlantiradi.

**Faollikni rag‘batlantirish**: Musobaqaviy elementlar orqali. O‘yin orqali muvaffaqiyatni his qilish – bu gamifikatsiyaning asosiy mexanizmi bo‘lib, o‘yin elementlari (ballar, darajalar, mukofotlar) orqali insonning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga asoslangan. O‘yinlarda tez-tez erishiladigan kichik muvaffaqiyatlar (masalan, level o‘tish) o‘quvchi yoki foydalanuvchiga "g‘olib" hissi beradi, bu esa keyingi harakatlarni rag‘batlantiradi.

**Shaxsiylashtirish**: Har bir o‘quvchining darajasiga mos vazifalar. Shaxsiylashtirish ta’limda o‘quvchilarning individual daraja, qiziqishlari va tezligiga mos o‘quv jarayonini moslashtirishni anglatadi. Gamifikatsiyali mobil o‘yinlarda bu AI algoritmlari orqali amalga oshiriladi: o‘quvchining oldingi natijalari asosida qiyinlik darajasi avtomatik o‘zgaradi (adaptive learning).



ISSN 3030-3907

**Asosiy printsiplar:** Daraja aniqlash: Dastlabki test orqali o‘quvchining bilim darajasi (boshlovchi, o‘rta, ilg‘or) baholanadi. Mos vazifalar: Har daraja uchun maxsus missiyalar – masalan, matematikada boshlovchiga oddiy qo‘shish, ilg‘orga tenglamalar. Real-time moslashuv: Noto‘g‘ri javob bersa, osonroq vazifa beriladi; to‘g‘ri javobda murakkablashtiriladi. Masalan, Duolingo yoki Kahoot kabi ilovalar gamifikatsiyaning muvaffaqiyatli namunalari bo‘lib, millionlab foydalanuvchilarni jalb qilgan. Tadqiqotning maqsadi — “Tekislikda Dekart koordinatalari’’ bo‘limini o‘rgatuvchi interaktiv elektron dastur ishlab chiqish va uning ta’lim jarayonidagi qo‘llanish samaradorligini asoslash.

Dars jarayonida gamifikatsiya o‘yin mexanizmlarini (ballar, mukofotlar, darajalar, reytinglar) ta’limga integratsiya qilish orqali talabalarni jalb etish va motivatsiyasini oshirish usulidir. Bu yondashuv o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytirib, o‘rganishni interaktiv va qiziqarli qiladi.

**Asosiy elementlar** Ballar va reytinglar: To‘g‘ri javoblar uchun ballar berish o‘quvchilarga yutuqlarini kuzatish va raqobatlashish imkonini beradi.

Mukofotlar va rozetlar: Muvaffaqiyatlar uchun virtual nishonlar yoki sertifikatlar berish motivatsiyani oshiradi.

Darajalar va peshqadamlar: Bosqichma-bosqich ko‘tarilish va jadval orqali sog‘lom raqobat yaratadi.

**Amaliy qo‘llash usullari** O‘yinga asoslangan viktorinalar, taymerli savol-javoblar va jamoaviy o‘yinlar darslarni hayajonli qiladi. Raqamli platformalarda (Kahoot!, AhaSlides, EdApp) bu elementlarni qo‘llash o‘quvchilarning ishtirokini 85% gacha oshirishi mumkin. Gamifikatsiya shuningdek, bilimlarni saqlashni yaxshilaydi va yumshoq ko‘nikmalarni (hamkorlik, tanqidiy fikrlash) rivojlantiradi.

Loyiha doirasida Pygame yordamida koordinata o‘qlari va nuqtalarni joylashtirish bo‘yicha interaktiv maydon yaratildi. Dasturda ishlatilgan asosiy funksiyalardan biri — bu 2D grafik obyektlarni vizual tarzda chizish imkoniyatidir. Python dasturida bu jarayon asosan Pygame kutubxonasi yordamida amalga oshiriladi. Pygame o‘z ichiga grafik primitivlarni yaratish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalarni oladi. Ushbu grafik primitivlar orqali koordinata tekisligi, nuqtalar va geometrik shakllar aniq, sodda va o‘quvchilar uchun tushunarli tarzda aks ettiriladi.

Dasturiy ta’minotning samaradorligini oshirishda animatsiyalar muhim o‘rin tutadi. Geometriya kabi vizual fanni o‘qitishda animatsiyalar nafaqat o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi, balki murakkab tushunchalarni bosqichma-bosqich ko‘rsatish orqali ularni chuqurroq anglashga yordam beradi. “Tekislikda Dekart koordinatalari” mavzusida animatsiyalarni yaratish Pygame yoki JavaScript Canvas texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Animatsiya — bu obyekt va grafik


ISSN 3030-3907

elementlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarib borish jarayonini tasvirlashdir. O‘quv dasturida animatsiyalar quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

abstrakt matematik tushunchalarni vizual ko‘rinishga aylantirish; nuqtaning harakati orqali koordinatalar o‘zgarishini ko‘rsatish; masofa formulasining dinamik tushuntirilishi;

kvadrantlar bo‘yicha nuqtalarning joylashuvini bosqichma-bosqich namoyish qilish; foydalanuvchining xatti-harakatlariga real vaqt rejimida javob berish.

Animatsiyalar o‘quvchilarning fazoviy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Real vaqt rejimida vizual o‘zgarishlarni amalga oshirish — interaktiv o‘quv dasturlarining eng muhim komponentlaridan biridir. Geometriyaning “Tekislikda Dekart koordinatalari” bo‘limini o‘rgatuvchi dasturda bu imkoniyat o‘quvchining har bir kiritgan ma’lumotini darhol grafik ko‘rinishda aks ettiradi. Bu esa o‘rganilayotgan mavzuning tushunarli, jonli va oson qabul qilinishini ta’minlaydi. Real vaqt (real-time) texnologiyasi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan har bir amalni: **kechiktirmasdan**, **bir zumda**, **ko‘rinadigan grafik natijaga**,aylantirishni anglatadi.

Masalan: O‘quvchi x qiymatini 2 dan 3 ga o‘zgartirsa, nuqta hamon ekranda bir zumda yangi pozitsiyaga siljiydi. Segmentning uzunligi o‘zgarsa, masofa qiymati darhol yangilanadi. O‘qlar, shakllar, nuqtalar darhol qayta chiziladi. Bu jarayon o‘quvchilarda “koordinata o‘zgarishi → vizual o‘zgarish” aloqasini mustahkamlaydi. Natijalar gamifikatsiyaning o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi, bu Duolingo va Kahoot kabi platformalar bilan mos keladi. Mobil o‘yin darslarni qiziqarli qiladi, ammo ekran vaqti ortishi xavfi mavjud. Cheklovlar: Kichik namuna va fanlarga bog‘liqlik. Kelajakda AI integratsiyasi va ko‘p tillilik (o‘zbek/ingliz) qo‘shilishi mumkin. Ushbu yondashuv O‘zbekiston maktablarida motivatsiyani oshirish uchun tavsiya etiladi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Dars jarayonida gamifikatsiyani qo‘llash uchun ishlab chiqilgan mobil o‘yin-dastur o‘quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi: eksperimental guruhda umumiy motivatsiya ko‘rsatkichi 55.2% ga yaxshilandi, ishtirok darajasi 78% ga oshdi. Unity engine asosidagi prototip ballar, level’lar va leaderboardlar orqali interaktivlikni ta’minlab, an’anaviy darslarga qaraganda samaraliroq natija berdi. Shaxsiylashtirish elementi har o‘quvchining darajasiga mos vazifalar berib, individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatladi.

**Takliflar**

Dars jarayonida gamifikatsiyani qo‘llash uchun mobil o‘yin-dasturni yanada takomillashtirish va keng joriy etish bo‘yicha quyidagi takliflar beriladi: Texnologik rivojlantirish: O‘yinni AI algoritmlari bilan boyitish, shaxsiylashtirishni kuchaytirish (o‘quvchi darajasiga mos vazifalar) va VR/AR



ISSN 3030-3907

elementlarini qo‘shish. Integratsiya va moslashuv: Moodle, Google Classroom va O‘zbekistonning "E-ta’lim" platformalari bilan to‘liq API bog‘lanishini ta’minlash, o‘zbek va ingliz tillarini qo‘llab-quvvatlash. Kengaytirilgan sinovlar: Pilot loyihalarni 500+ o‘quvchili maktablarda o‘tkazish, 6-12 oylik uzoq muddatli monitoring o‘rnatish va ekran vaqti cheklovlarini joriy etish. O‘qituvchilar tayyorlash: Unity engine va gamifikatsiya bo‘yicha bepul onlayn kurslar tashkil etish, o‘qituvchilar uchun real-time hisobotlar va analitikalar qo‘shish. Ota-onalar ishtiroki: Mobil ilovaga ota-onalarga monitoring va rag‘batlantirish funksiyalarini qo‘shish, haftalik hisobotlarni avtomatik yuborish. Hukumat va muassasalar bilan hamkorlik: O‘zbekiston Ta’lim vazirligi bilan birgalikda milliy ta’lim dasturiga kiritish, grantlar orqali rivojlantirishni moliyalashtirish. Xavfsizlik va etika: Ma’lumotlar maxfiyligini GDPR standartlariga moslashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va o‘yin qaramligi oldini olish mexanizmlarini joriy etish.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. Gamification: Using game-design elements in non-gaming contexts.
2. Aparicio M., Oliveira T., Bacao F. Gamification in education: A systematic literature review.
3. Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification.
4. Azizxo‘jayev A.A. Axborot texnologiyalari va tizimlari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
5. Murodova, Zarina, and Mehrangez Jo‘raqulova. "Mustaqil ta’limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish." YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 2.3 (2024). Xudoyberganov, B. (2022). Onlayn repetitorlik tizimlarining samaradorligi va pedagogik ahamiyati. Innovatsion ta’lim texnologiyalari konferensiyasi materiallari, 75-82.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi. Toshkent, 2020.
7. Rashidovna, Murodova Zarina, and Talabov Mirshod Dilshodovich. "Mustaqil ta’limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish." pedagogik tadqiqotlar jurnali 2.2 (2025): 274-277.
8. Rashidovna, murodova zarina. "sun’iy intellektual tizimlar (ai) orqali talabalarning individual talablari va qobiliyatlariga mos ta’lim usullarini ishlab chiqish." pedagogik tadqiqotlar jurnali 2.2 (2025): 236-239



ISSN 3030-3907

# KESUVCHI PICHOQLI ASBOBLARNING YUZALARIDA YEYILISHGA CHIDAMLI FUNKSIONAL QATLAMLAR HOSIL QILISH ORQALI ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Amonov Mahmud Idris o‘g‘li**
***BDTU dotsent***
**Shodmonov Mirjon Davlat o`g`li**
***BDTU magistrant***

**Annotatsiya:** Maqolada mashinasozlik texnologiyasida ishlatiladigan kesuvchi pichoqli asboblarning tez yeyilishi muammosi va uni kamaytirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Kesish jarayonida asbob sirtida yuqori harorat, ishqalanish va abraziv kuchlanishlar hosil bo‘lib, bu holat xizmat muddatini qisqartiradi. Muammoni bartaraf etish uchun PVD, CVD, ion-plazma nitroksidlash va termo-diffuzion usullar orqali yeyilishga chidamli funksional qatlamlar qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Qoplamalar sirtning qattiqligi va issiqlik barqarorligini oshirgani, kesish kuchlarini kamaytirgani va asbobning xizmat muddatini 2–3 baravar uzaytirgani aniqlangan. Tadqiqot ishlab chiqarishda kesish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan..

**Kalit so‘zlar.** mashinasozlik texnologiyasi; kesuvchi pichoqlar; yeyilish; funksional qatlamlar; PVD; CVD; ion-plazma; termo-diffuzion qoplama; sirt qattiqligi; xizmat muddati.

Yaratilgan tizim arxitekturasi ikki asosiy modulga - foydalanuvchi qismi va admin panelga bo‘linadi. Har bir modul o‘z vazifasini mustaqil bajaradi, lekin ular yagona ma’lumotlar bazasi orqali o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi.

Foydalanuvchi (User) qismi - bu xodim tomonidan QR-kod yordamida tizimga kirish va chiqish amallarini bajaruvchi interfeysdir. Har bir xodimga oldindan individual QR-kod biriktiriladi. Ushbu kodni skanerlaganda tizim foydalanuvchi identifikatorini aniqlaydi va vaqt belgisi bilan birgalikda ma’lumotlar bazasiga yozuv qo‘shadi. Bu jarayon to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, inson aralashuvini kamaytiradi va aniqlikni oshiradi.

Admin panel esa tizimning boshqaruv markazi hisoblanadi. Administrator ushbu modul orqali barcha xodimlarning ro‘yxatini, ularning ishga kelish va ketish vaqtlarini, ish davomiyligini hamda umumiy statistik ma’lumotlarni kuzatishi mumkin. Panelda real vaqt tahlili, hisobotlarni eksport qilish va ma’lumotlarni filtrlash imkoniyatlari mavjud. Bu esa rahbariyatga tezkor qaror qabul qilish va mehnat intizomini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Tizim Python dasturlash tili asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, MySQL ma’lumotlar bazasi bilan ishlaydi. QR-kodlarni yaratish uchun qrcode kutubxonasidan, foydalanuvchi interfeysini yaratishda esa Tkinter yoki Flask/Django web-frameworklaridan foydalanish mumkin.

Tizimning samarali ishlashi, eng avvalo, puxta tashkil etilgan ma’lumotlar bazasi arxitekturasiga tayanadi. Ushbu arxitektura xodimlarga oid shaxsiy ma’lumotlar, vaqt jurnallari va administrator vakolatlari bo‘yicha uzviy bog‘langan strukturalarni o‘z ichiga oladi. Har bir xodimga biriktirilgan QR-kod identifikatori orqali tizimga real vaqt rejimida kirish-chiqish jarayonlari aniqlanadi, bu ma’lumotlar esa bir zumda bazaga yozilib, administrator panelida onlayn monitoring qilish imkonini beradi. Real vaqt rejimida ishlashi tizimning tezkorligi va barqarorligini oshiradi, ammo ayni paytda xavfsizlik talablarini yuqori darajada


ISSN 3030-3907

ta’minlashni ham zarur qiladi. Aynan shu sababli tizimda bir nechta qatlamli himoya mexanizmlari joriy etilgan.

Avvalo, foydalanuvchi autentifikatsiyasi kuchaytirilgan shaklda tashkil etilgan bo‘lib, tizimga kirish jarayoni faqat shaxsiy login-parol orqali amalga oshiriladi. Administratorlar uchun esa alohida autentifikatsiya darajalari belgilanadi, bu ularning har biri faqat o‘z vakolati doirasidagi ma’lumotlargagina kira olishini ta’minlaydi. Bu yondashuv ma’lumotlar yaxlitligi buzilmasdan, tizimni boshqarish jarayonlarini tartibli va xavfsiz holatda saqlaydi. Parol bilan ishlash jarayoni ham alohida e’tibor bilan tashkil etilgan: parollar hech qachon ochiq matn ko‘rinishida saqlanmaydi, balki SHA-256 yoki bcrypt kabi zamonaviy hashing algoritmlari orqali qayta ishlanadi. Shifrlash jarayoni “salt” qo‘shish orqali yanada mustahkamlanadi, bu esa hatto tizim buzilgan taqdirda ham foydalanuvchi parollarining tiklanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shunday qilib, kriptografik himoya parol xavfsizligini nafaqat hozirgi, balki uzoq muddatli xavfsizlik uchun ham kafolatlaydi.

Tizimdagi identifikatsiya jarayonining yana bir muhim qismi - QR-kod validatsiyasi. Har bir skanerlangan QR-kod avval tizimda mavjud bo‘lgan identifikator bilan solishtiriladi va faqat haqiqiy, tizimda ro‘yxatdan o‘tgan kodlargina tasdiqlanadi. Agar kod buzilgan, qalbakilashtirilgan yoki o‘zgaritirilgan bo‘lsa, tizim avtomatik ravishda rad javobini qaytaradi. Bu mexanizm xodimning shaxsiy identifikatsiyasini aniq, ishonchli va tezkor tarzda amalga oshirish imkonini beradi. QR-kod orqali kirishning aynan real vaqt rejimida qayd etilishi vaqt jurnallarining to‘g‘riligi va tizimning samarali nazoratini ta’minlaydi.

Shuningdek, tizimning xavfsizlik siyosati SQL injeksiya kabi keng tarqalgan tahdidlardan himoyalanish masalasiga ham jiddiy yondashadi. Barcha ma’lumotlar bazasiga yuboriladigan so‘rovlar prepared statement, parameterized query va input validation kabi usullar yordamida qayta ishlanadi. Bu yondashuv foydalanuvchidan kelayotgan har qanday ma’lumot strukturasini tekshirib, zararli kodlarning bazaga kirib borishini to‘liq oldini oladi. Tayyorgarlikdan o‘tgan so‘rovlar SQL kodini ma’lumotlardan ajratilgan holda qayta ishlaydi, bu esa injeksiya imkoniyatini deyarli nolga tushiradi.

Umuman olganda, tizim arxitekturasi faqat funksional ishlashni ta’minlash bilan cheklanmasdan, axborot xavfsizligining zamonaviy standartlariga mos ravishda loyihalashtirilgan. Foydalanuvchi autentifikatsiyasi, parollarni kriptografik himoyalash, QR-kod validatsiyasi va SQL injeksiyadan himoyalanish mexanizmlarining integratsiyalashgan holda ishlashi tizimni barqaror, ishonchli va xavfsiz platformaga aylantiradi. Shu bilan birga, ma’lumotlar bazasining real vaqt rejimida uzluksiz yangilanib borishi tizimdan foydalanishda qulaylik yaratib, administratorlar uchun aniq va tezkor nazorat imkoniyatini taqdim etadi. Bu


ISSN 3030-3907

yondashuvlarning barchasi tizimning zamonaviy talablarga to‘liq javob berishini, shaxsiy ma’lumotlarning ishonchli himoyalanishi va butun jarayonning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Ishlab chiqilgan xodimlarni QR-kod orqali tanib olish tizimi zamonaviy boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi samarali yechimlardan biridir. Ushbu tizim korxona yoki tashkilot faoliyatida inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi, vaqtni tejaydi va nazoratni aniqroq qiladi.

Birinchidan, tizimning asosiy afzalligi - bu tezkorlik va aniqlikdir. Har bir xodimning QR-kodi avtomatik tarzda tanilib, tizimga real vaqt rejimida ma’lumot kiritiladi. Bu esa ishga kelish-ketish vaqtlarini qo‘lda kiritish zaruratini yo‘qotadi va ma’lumotlar ishonchliligini oshiradi.

Ikkinchidan, tizim boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi. Administrator barcha xodimlar haqidagi ma’lumotlarni bir joyda ko‘rishi, ularning ish vaqtini tahlil qilishi va zarur hisobotlarni tezda shakllantirishi mumkin. Bu esa mehnat unumdorligini tahlil qilish va ish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, tizim xavfsizlik darajasini oshiradi. Har bir QR-kod noyob bo‘lgani sababli, soxtalashtirish yoki boshqa xodim nomidan tizimga kirish deyarli imkonsizdir. Shuningdek, parollar shifrlangan shaklda saqlanadi va admin panel faqat maxsus ruxsat asosida ishlaydi.

Tizimning yana bir muhim jihati - bu moslashuvchanlik. U turli korxonalar, ta’lim muassasalari yoki tashkilotlarning ehtiyojiga qarab moslashtirilishi mumkin. Masalan, tizimga qo‘shimcha modullar - ish jadvalini avtomatik tuzish, oylik hisobotlarni PDF shaklida eksport qilish yoki foydalanuvchi faoliyatini tahlil qilish funksiyalari qo‘shilishi mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan, bunday tizimlar korxona ichki boshqaruvini raqamlashtirishga, mehnat intizomini kuchaytirishga va ma’muriy xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Natijada, ishlab chiqilgan QR-kod asosidagi identifikatsiya tizimi nafaqat texnik jihatdan qulay, balki amaliy samaradorligi bilan ham ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan xodimlarni QR-kod orqali tanib olish tizimi korxona va tashkilotlarda ish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda mehnat intizomini nazorat qilishda samarali yechim hisoblanadi. Tizim tezkor, aniq va xavfsiz ishlashi bilan ajralib turadi. Har bir xodimga berilgan individual QR-kod yordamida kirish-chiqish jarayonlari avtomatik qayd etiladi, bu esa inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.Admin panel orqali barcha ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish imkoniyati yaratilgani tizimning amaliy ahamiyatini oshiradi. Umuman olganda, ushbu tizim zamonaviy raqamlashtirish


ISSN 3030-3907

jarayonlariga mos, qulay va ishonchli boshqaruv vositasi sifatida foydali natija beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro‘ziyev R.A. *Dasturlash asoslari*. - Toshkent, 2020. – 159 b.
2. .Martin, R. C. *Clean Code: A Handbook of Agile Software Craftsmanship*. - Prentice Hall, 2008.
3. Fowler, M. *Patterns of Enterprise Application Architecture*. - Addison-Wesley, 2003.


ISSN 3030-3907

# O‘ZBEKISTONDA AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA SOHASIDA TA'LIMNI ZAMONAVIYLASHTIRISH UCHUN ENG MUHIM QADAMLAR

**Nematova Maftuna Rahmatilloyevna**

***Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti. Buxoro, O‘zbekiston.***

***E-mail: nematova.maftuna@bsmi.uz***

**Annotatsiya:** Ushbu ishda O‘zbekistonda akusherlik va ginekologiya sohasidagi ta’limni zamonaviylashtirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar va qadamlar tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari va ilm-fan yutuqlarini o‘quv jarayoniga joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim metodikasini rivojlantirish, xalqaro standartlar asosida o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish, simulyatsion treninglar, interfaol o‘qitish usullarini joriy etish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashi ko‘rsatib o‘tiladi. Ta’limning zamonaviylashtirilishi nafaqat malakali mutaxassislar tayyorlashga, balki ayollar salomatligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Akusherlik ta'limi, ginekologiya ta'limi, zamonaviy tibbiy ta'lim, tibbiy ta'limni rivojlantirish, o‘zbekistonda sog‘liqni saqlash ta'limi, klinik amaliyot, meditsina kadrlarini tayyorlash, innovatsion o‘quv metodlari, simulyatsion treninglar

**Аннотация**: В данной работе будут проанализированы основные направления и шаги, направленные на модернизацию образования в области акушерства и гинекологии в Узбекистане. Важное значение имеет внедрение в учебный процесс современных медицинских технологий и достижений науки, разработка практико-ориентированных методик обучения, пересмотр учебных программ на основе международных стандартов. Также будет показано, что повышение квалификации учителей, симуляционное обучение, внедрение интерактивных методов обучения и расширение возможностей профессионального развития значительно улучшат качество образования. Модернизация образования служит не только подготовке квалифицированных специалистов, но и улучшению здоровья женщин.

**Ключевые слова**: акушерское образование, гинекологическое образование, современное медицинское образование, развитие медицинского образования, санитарное просвещение в Узбекистане, клиническая практика, подготовка медицинских кадров, инновационные методы обучения, симуляционные тренинги

**Annotation**: This work analyzes the main directions and steps aimed at modernizing education in the field of Obstetrics and Gynecology in Uzbekistan. It

is important to introduce the achievements of modern medical technologies and science into the educational process, develop the methodology of practice-oriented education, revise curricula based on international standards. It is also shown that improving the skills of teachers, introducing simulation training, interactive teaching methods and expanding the possibilities of professional development will significantly improve the quality of Education. The modernization of Education serves not only to train qualified specialists, but also to improve women's health.

**Keywords**: Obstetrics education, gynecology education, modern medical education, development of medical education, health education in Uzbekistan, clinical practice, training of medical personnel, innovative training methods, simulation training

**Kirish.**

Akusherlik va ginekologiya sohalari inson salomatligi va jamoat sog‘lig‘ining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, profilaktika qilish va samarali davolash choralarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro sog‘liqni saqlash standartlari va ilmiy-tadqiqotlar asosida zamonaviy akusherlik va ginekologiya ta'limi sifatini oshirish mamlakatlar sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va aholining tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda tibbiyot sohasida, xususan, akusherlik va ginekologiya yo‘nalishida salohiyatni oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar dasturini amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va kasbiy tayyorlov tizimida xalqaro standartlarga mos zamonaviy o‘quv dasturlari, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim metodikalari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Chunki malakali mutaxassislarning tayyorlanishi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligiga, balki aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda akusherlik va ginekologiya sohasidagi ta'limni zamonaviylashtirish jarayoni o‘rganilishi va takomillashtirilishi lozim bo‘lgan kompleks masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda nafaqat o‘quv dasturlarining mazmuni va metodikasi, balki o‘qituvchilar malakasi, texnik jihozlar, laboratoriya va klinik bazalar, shuningdek, raqamli texnologiyalar va telemeditsina imkoniyatlaridan foydalanish darajasi ham muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur ishda O‘zbekiston sharoitida akusherlik va ginekologiya ta’limini zamonaviylashtirish uchun eng muhim qadamlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, global va mintaqaviy tajribalar asosida samarali o‘quv modellarini ishlab chiqish hamda amaliyotga



ISSN 3030-3907

tatbiq etish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Bu esa nafaqat tibbiyot sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, balki mamlakat sog‘liqni saqlash tizimining umumiy sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Ta’lim sohasidagi xalqaro va milliy manbalarni o‘rganish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi hamda Ta’lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta’lim dasturlari va me’yoriy hujjatlar ta’lim jarayonining asosiy manbalarini tashkil etadi. Shuningdek, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va xalqaro tibbiyot ta’lim standartlarini belgilovchi WFME (World Federation for Medical Education) tavsiyalari ta’limni zamonaviylashtirish yo‘lida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy akusherlik va ginekologiya sohasida chop etilgan o‘quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar va jurnallar hamda tajribali pedagoglar va klinik mutaxassislarning amaliy metodikalari ham ta’lim sifatini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Muammo va imkoniyatlarni aniqlash. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodikalar va ularning samaradorligi o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim materiallari va uskunalar zamon talablariga to‘liq javob bermasligi, pedagoglarning malaka darajasi va zamonaviy usullarga tayyorligi yetarli emasligi muhim muammolar sifatida ajralib turadi. Bundan tashqari, amaliyot uchun ajratilayotgan vaqt yetarli emasligi ham ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Ta’limning zamonaviy tendensiyalari. Zamonaviy ta’limda interaktiv yondashuvlar, jumladan simulyatsiya, virtual reallik va onlayn platformalar keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, problemaga asoslangan ta’lim (PBL), kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim hamda jamoaviy va interdisipliner yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot va tahlil metodlari. Ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlash va yechimlarni ishlab chiqish uchun bir qancha metodlardan foydalaniladi. Kvalitativ metodlar doirasida intervyu va fokus-guruhlar yordamida o‘qituvchilar va talabalar fikrlari o‘rganiladi, etnografik kuzatuv orqali laboratoriya va klinik sharoitdagi amaliyotlar baholanadi. Kvantitativ metodlar sifatida so‘rovnomalar va statistik tahlillar qo‘llaniladi, bunda ta’lim sifati, metodlarning samaradorligi va natijalar tahlil qilinadi. Eksperimental metodlarga esa pilot loyihalar (masalan, simulyatsiya laboratoriyalari va virtual darslar) va an’anaviy usullar bilan yangi metodlarning taqqoslanishi kiradi. Shuningdek, ta’lim dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va boshqa hujjatlarni tahlil qilish ham muhim o‘rinni egallaydi.

Zamonaviylashtirish uchun tavsiya etuvchi qadamlar. Ta’lim dasturlarini yangilash zarur bo‘lib, kompetensiya asosidagi o‘quv rejalari ishlab chiqilishi lozim. Pedagoglarning malakasini oshirish maqsadida zamonaviy metodika bo‘yicha treninglar tashkil etish muhimdir. Shuningdek, simulyatsiya uskunalari va


ISSN 3030-3907

virtual laboratoriyalarni joriy etish orqali ta’lim jarayoni yanada interaktiv va samarali qilinishi mumkin. Amaliyotga ko‘proq e’tibor qaratish uchun klinikalarda vaqtni kengaytirish va mentorlik tizimini rivojlantirish lozim. Oxir-oqibat, talabalar va o‘qituvchilarni ilmiy izlanishlarga jalb etish orqali ta’lim sifati va ilmiy salohiyat oshiriladi.

**NATIJALAR.** Ta'lim sifatining oshishi zamonaviy pedagogik metodlar va interaktiv o‘quv materiallari joriy etilishi bilan talabalarning bilim darajasi sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari orqali talabalar kasbiy ko‘nikmalarni samaraliroq egallay boshladilar. Malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida zamonaviy diagnostika va davolash usullarini o‘rgatish natijasida yangi avlod shifokorlar klinik amaliyotda yuqori malakaga ega bo‘ldilar. Xalqaro standartlarga mos keluvchi ta’lim tizimi tufayli yosh mutaxassislar xorijiy ilmiy-texnik yutuqlarni qo‘llashga tayyor bo‘ldilar.

Innovatsion texnologiyalarning tatbiqi simulyatsion trening markazlari va virtual laboratoriyalar orqali talabalarga real vaziyatlarda harakat qilish imkoniyatini yaratdi. Zamonaviy texnik vositalar yordamida jarrohlik va diagnostika ko‘nikmalari sezilarli darajada oshirildi. Ilmiy tadqiqotlar va tajriba almashinuvi sohasida talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy ishlarda sifatli o‘sish kuzatildi. Xalqaro hamkorlik va konferensiyalar orqali tajriba almashinuvi kuchayib, zamonaviy yondashuvlar muvaffaqiyatli o‘zlashtirildi.

Tibbiyot ta’limi tizimining modernizatsiyasi doirasida dastur va o‘quv rejalar zamonaviy talab va standartlarga moslashtirildi, shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligida ta’lim infratuzilmasi yanada yaxshilandi. Kasbiy rivojlanish va davomiy ta’lim tizimi yaratilib, mutaxassislar uchun muntazam malaka oshirish kurslari va seminarlar tashkil etildi. Doimiy ta’lim tizimi kasbiy standartlarni saqlash va yangilashga imkon berdi, bu esa ta’lim sifatining yanada oshishiga xizmat qildi.

**MUHOKAMA.** Ta’lim dasturlarini yangilash va zamonaviylashtirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy asoslangan, xalqaro standartlarga mos keladigan dasturlar ishlab chiqish zarur bo‘lib, bu borada dunyo tajribasi, yangi tibbiy texnologiyalar va ilg‘or usullarni ta’lim jarayoniga joriy etish kerak. Ta’limda nazariy bilimdan ko‘ra amaliy ko‘nikmalarga katta e’tibor berilishi lozim. Shu sababli, klinikalarda stajirovka, trening va simulyatsion mashg‘ulotlar ko‘paytirilishi talab etiladi. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va klinikalarni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash ham muhimdir. Yangi ultratovush, endoskopik va diagnostik qurilmalar bilan jihozlash, shuningdek, simulyatorlar va virtual haqiqat (VR) texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish talabalarga murakkab jarayonlarni o‘rganishda katta yordam beradi. O‘qituvchilar va mutaxassislarning


ISSN 3030-3907

malakasini oshirish uchun davlat va xalqaro darajada malaka oshirish kurslari, seminarlar tashkil etilishi kerak. Bu orqali mutaxassislar yangi usullar va ilmiy yutuqlar bilan tanishib, o‘zaro tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Akusherlik va ginekologiya sohasida ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Soha bo‘yicha ilmiy izlanishlarga grantlar ajratish, shuningdek, talabalar va yosh olimlarni ilmiy ishlar qilishga rag‘batlantirish ta’limning sifatini yanada oshiradi. Multidisipliner yondashuvni rivojlantirish doirasida ginekologiya, pediatriya, reproduktiv tibbiyot, genetik tahlil kabi turli sohalarni birlashtirgan kompleks ta’lim modeli yaratish zarur. Bundan tashqari, hamshiralar va boshqa sog‘liqni saqlash mutaxassislarini ham zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash lozim.

Axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali onlayn kurslar, interaktiv platformalar, elektron kutubxonalar va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish ta’limning uzluksizligini ta’minlaydi, ayniqsa pandemiya kabi qiyin vaziyatlarda bu juda muhimdir.

**XULOSA.** O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan akusherlik va ginekologiya sohasi, ayollar sog‘lig‘i, homiladorlik va tug‘ish jarayonlarini sifatli nazorat qilish nuqtai nazaridan yuqori darajada malakali kadrlarni talab qiladi. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi, yangi texnologiyalar va xalqaro standartlar asosida ta'limni yangilash zarurati sohani yanada samarali qilish va aholi salomatligini oshirishga qaratilgan asosiy omildir.

1. Ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish

Eng avvalo, akusherlik va ginekologiya bo‘yicha o‘quv dasturlarini xalqaro standartlar va zamonaviy tibbiyot amaliyotlariga moslashtirish kerak. Bu jarayonda Tibbiyot ta'limi milliy akkreditatsiya tizimini mustahkamlash, xalqaro tajriba va ekspertlar fikrini inobatga olish, hamda sohadagi eng so‘nggi ilmiy yutuqlarni o‘quv dasturlariga kiritish zarur.

2. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta'limni kuchaytirish

Nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan to‘ldirish uchun klinik amaliyotlarga katta e'tibor qaratish lozim. Talabalar zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan shifoxonalar va tibbiyot markazlarida real sharoitda ishlash imkoniga ega bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, simulyatsiya markazlari tashkil etish, virtual va aralash (hybrid) ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

3. O‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish

Zamonaviy ta'lim uchun yuqori malakali pedagog kadrlar muhimdir. Akusherlik va ginekologiya sohasidagi o‘qituvchilarning doimiy professional rivojlanishi, xalqaro konferensiyalar, seminarlar va ilmiy amaliyotlarda ishtirok


ISSN 3030-3907

etishi, shuningdek, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

4. Innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'limni joriy etish

Zamonaviy tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalar katta rol o‘ynaydi. Telemeditsina, elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv o‘quv materiallari kabi innovatsiyalarni keng joriy etish orqali ta'lim jarayonini interaktiv, tezkor va samarali qilish mumkin.

5. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish

Akusherlik va ginekologiya sohasida yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, talabalar va yosh olimlarni ilmiy faoliyatga jalb etish zarur. Bu nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki O‘zbekistonning sohadagi ilmiy salohiyatini ham oshiradi. Shuningdek, ilmiy izlanishlarni amaliyotga tatbiq etish ta'limni zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.

6. Hamkorlik va tajriba almashish

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy tibbiyot markazlari va universitetlari bilan birgalikda ilmiy va ta'lim loyihalarini amalga oshirish, talabalar va o‘qituvchilarning chet elda stajirovkalarini tashkil etish sohani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

7. Talabalar va yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash

Yosh kadrlarni rag‘batlantirish, stipendiyalar, grantlar ajratish, ilmiy va amaliy loyihalarda ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ular uchun kasbiy va psixologik yordam tizimini yaratish zarur.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. (2023). Akusherlik va ginekologiya sohasida ta’limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: SSV.
2. Abdullayev, M., & Usmonov, R. (2021). Zamonaviy akusherlik-ginekologiya ta'limining innovatsion metodlari. Tibbiyot va ta’lim, 4(2), 45-52.
3. World Health Organization. (2022). Global standards for midwifery education. Geneva: WHO Press.https://www.who.int/publications/i/item/9789240041331
4. Mamatqulov, S. (2020). O‘zbekistonda tibbiyot ta'limining raqamlashtirilishi va zamonaviy axborot texnologiyalari qo‘llanilishi. Tibbiyot axboroti, 6(3), 12-18.
5. Walker, D., & Avant, K. (2019). Strategies for enhancing midwifery and gynecology education: A global perspective. Journal of Medical Education, 34(5), 321-335.
6. Toshpulatov, E. (2022). O‘zbekiston ta’lim tizimida simulyatsion treninglarning ahamiyati. O‘zbekiston Tibbiyot Jurnali, 8(1), 77-83.
7. National Institute for Health and Care Excellence (NICE). (2021). Educational frameworks for obstetrics and gynecology training. London: NICE Guidelines.



ISSN 3030-3907

8. Rasulov, J., & Karimova, N. (2023). Akusherlik va ginekologiya ta'limida interaktiv metodlarning samaradorligi. Tibbiy Ta’lim va Tadqiqotlar, 7(1), 29-36.
9. UNESCO. (2020). Modernizing medical education in Central Asia: Challenges and opportunities. Paris: UNESCO Publishing.
10. Yusupov, F., & Saidova, L. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tibbiyot ta’limiga ta’siri. Ilm-fan va Ta’lim, 3(4), 55-61.


ISSN 3030-3907

# AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA KURSINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHDA VR VA AR TEXNOLOGIYALARINING O'RNI, AFZALLIKLARI VA DOLZARB MASALALARI

**Nematova Maftuna Rahmatilloyevna**

***Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti. Buxoro, O'zbekiston.***

***E-mail: nematova.maftuna@bsmi.uz***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada akusherlik va ginekologiya yo'nalishida tibbiy ta'limni modernizatsiya qilishda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining imkoniyatlari, afzalliklari hamda dolzarb muammolari yoritilgan. VR/AR vositalaridan foydalanish orqali talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, simulyatsiya asosida treninglarni tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Akusherlik, ginekologiya, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, tibbiy ta'lim, simulyatsiya, texnologik innovatsiyalar.

**Annotation**: This article covers the possibilities, advantages and current problems of virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies in the modernization of medical education in the direction of Obstetrics and gynecology. Through the use of VR/AR tools, the possibilities of forming practical skills in students, organizing training based on simulations have been analyzed.

**Keywords**: Obstetrics, Gynecology, virtual reality, augmented reality, Medical Education, simulation, technological innovation.

**Аннотация**: В данной статье освещаются возможности, преимущества и актуальные проблемы технологий виртуальной реальности (VR) и дополненной реальности (AR) в модернизации медицинского образования в области акушерства и гинекологии. Проанализированы возможности формирования практических навыков у учащихся, организации обучения на основе моделирования с использованием средств VR / AR.

**Ключевые слова**: Акушерство, гинекология, виртуальная реальность, дополненная реальность, медицинское образование, моделирование, технологические инновации.

**Kirish.**

Zamonaviy tibbiy ta'limda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, akusherlik va ginekologiya kabi yuqori mas'uliyatli tibbiy sohalarda klinik holatlarni real sharoitga yaqin holda o'rganish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ta'lim uslublari – ya'ni nazariy darslar, klinik



ISSN 3030-3907

amaliyotlar va tajribali ustozlar bilan ishlash – o‘z samaradorligini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ularning ayrim cheklovlari mavjud: bemor xavfsizligini ta’minlash, real klinik holatlarning takrorlanuvchan emasligi va o‘quvchilarning faolligini doimiy ravishda ushlab turish qiyinchiligi shular jumlasidandir.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy ta’lim tizimiga ilg‘or axborot texnologiyalarini, xususan, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarini joriy etish muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bu texnologiyalar yordamida talabalar klinik holatlarni xavfsiz, takrorlanuvchi va interaktiv muhitda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. VR texnologiyasi to‘liq simulyatsiyalangan muhitda harakat qilishga imkon bersa, AR texnologiyasi esa real dunyo elementlariga qo‘shimcha axborot yoki grafik tasvirlarni birlashtirib, o‘quv jarayonini yanada boyitadi. Ayniqsa, akusherlik va ginekologiya sohalarida ushbu texnologiyalar yordamida tug‘ruq jarayonini, favqulodda vaziyatlarni va diagnostika usullarini o‘rganish samaradorligi yuqori bo‘lishi mumkin.

Mazkur ishda tibbiy ta’limda, xususan akusherlik va ginekologiya sohasida, VR va AR texnologiyalarining qo‘llanilishi, ularning afzalliklari, dolzarb muammolarga taklif qilayotgan yechimlari va kelajakdagi istiqbollari batafsil tahlil qilinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** So‘nggi yillarda tibbiy ta’limda, xususan, akusherlik va ginekologiya yo‘nalishida virtual haqiqat (VR — Virtual Reality) va kengaytirilgan haqiqat (AR — Augmented Reality) texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar, masalan, Maresky et al. (2019) tomonidan VR yordamida amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashning samaradorligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, Blyth et al. (2020) tadqiqotida AR texnologiyasi yordamida ayollar reproduktiv tizimini interaktiv o‘rgatish usuli talabalarning bilimini yanada oshirishga xizmat qilgani qayd etilgan.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni, jumladan VR/ARni o‘quv jarayoniga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiyalarni aynan akusherlik va ginekologiya yo‘nalishida keng ko‘lamda tadbiq etish bo‘yicha ilmiy-metodik ishlanmalar yetarli emas. Xorijiy adabiyotlarda VR/AR texnologiyalarining klinik simulyatsiya, anatomiya o‘qitish, amaliy ko‘nikmalarni mashq qilishda qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab misollar keltirilgan (Chen et al., 2021; Berryman, 2018).

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili — so‘nggi 5 yil ichida chop etilgan xalqaro va mahalliy maqolalar, dissertatsiyalar va texnik hisobotlar tahlil qilindi. Google Scholar, PubMed, Scopus kabi ilmiy bazalardan foydalanildi.


ISSN 3030-3907

Taqqoslash tahlili — VR/AR texnologiyalari qo‘llanilgan va an’anaviy metodlar asosida o‘tilgan darslar samaradorligi qiyoslandi.

Suhbat va so‘rovnoma metodi — oliy tibbiy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari hamda talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Kuzatuv metodi — VR/AR texnologiyalarini dars jarayoniga qo‘llagan tajriba sinflarida amaliy mashg‘ulotlar kuzatildi.

Eksperimental metod — AR va VR texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan interaktiv simulyatsiyalar dars jarayoniga tatbiq qilindi va ularning samaradorligi baholandi.

**NATIJALAR.** Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari zamonaviy tibbiy ta’limda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. VR texnologiyasi foydalanuvchini sun’iy yaratilgan, kompyuterda modellangan muhitga to‘liq “sho‘ng‘diradi” va bu orqali talaba real dunyodan uzilgan holda, xavfsiz tarzda murakkab tibbiy vaziyatlarni o‘rganishi mumkin. AR esa real muhitga virtual komponentlarni qo‘shish orqali tibbiy ma’lumot va tasvirlarni yanada aniq va tushunarli tarzda taqdim etadi. Bu texnologiyalar yordamida talabalar real bemor bilan ishlashdan oldin boshqariladigan va takrorlanuvchi o‘quv muhiti orqali puxta tayyorgarlik ko‘rishlari mumkin.

Akusherlik va ginekologiyada VR/AR texnologiyalarining qo‘llanilishi tobora kengaymoqda. Masalan, VR orqali tug‘ruqni boshqarish simulyatsiyalari orqali talabalar turli klinik ssenariylar asosida tug‘ruq jarayonini boshqarishni o‘rganishadi. Shuningdek, ginekologik tekshiruvlar, jumladan, pelvik tekshiruvlar yoki ultratovush (UTT) protseduralarini simulyatsiya qilish orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda egallash imkoniga ega bo‘ladi. AR texnologiyasi esa ayol jinsiy a’zolari tuzilishi va homiladorlik jarayonlarini vizual animatsiyalar orqali o‘rganishga yordam beradi.

Bu texnologiyalarning qo‘llanilishi bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Eng avvalo, VR/AR klinik muhitni xavfsiz tarzda taqlid etishga imkon beradi, bu esa xatolardan o‘rganish va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Talabalar mashqlarni qayta-qayta bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minlash, raqamli monitoring vositalari orqali o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish ham VR/AR texnologiyalarining muhim afzalliklaridan hisoblanadi.

Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etishda qator dolzarb muammolar ham mavjud. Xususan, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi — ayrim oliy o‘quv yurtlarida VR/AR uskunalari yo‘qligi yoki cheklanganligi muammo bo‘lib qolmoqda. Pedagoglarning texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikma va malakasi ham doimiy ravishda yangilanib borilishi zarur. Shuningdek, yuqori


ISSN 3030-3907

darajadagi VR/AR tizimlari katta moliyaviy sarmoyani talab qilishi sababli, bu texnologiyalarni keng joriy etishda moliyaviy to‘siqlar mavjud. O‘quv dasturlarining VR/AR asosidagi ta’lim modullariga hali to‘liq moslashmagani ham bu jarayonni sekinlashtiradi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun bir qator tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, VR/AR texnologiyalarini bosqichma-bosqich o‘quv jarayoniga integratsiya qilish lozim. Shuningdek, mavjud platformalar va ilovalarni lokalizatsiya qilish, ya’ni mahalliy til va madaniyatga moslashtirish orqali ularni yanada samarali qilish mumkin. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ularni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Nihoyat, davlat va xususiy sektor hamkorligida texnologik yechimlarni moliyalashtirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish orqali VR/AR asosidagi ta’limni rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

**MUHOKAMA.** Zamonaviy tibbiy ta’limda virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, akusherlik va ginekologiya kabi amaliy ko‘nikmalarni talab qiluvchi sohalarda bu texnologiyalar o‘quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, bu innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayoniga to‘liq integratsiya qilinishi uchun qator muhim jihatlar muhokama etilishi lozim.

Avvalo, VR/AR texnologiyalari yordamida talabalarga xavfsiz muhitda amaliy mashqlarni bajarar ekan, ularda kasbiy xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Misol uchun, tug‘ruq jarayonini simulyatsiya qiluvchi VR modullar talabalarni real klinik holatlarga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Bunda vizual, audial va taktil (sensor) ta’sirlar orqali chuqur o‘quv effekti yuzaga keladi. Shu bilan birga, AR texnologiyalari yordamida anatomik strukturalarni real vaqt rejimida tahlil qilish, ginekologik tekshiruvlar bo‘yicha interaktiv ko‘nikmalar hosil qilish mumkin.

Shunga qaramay, mazkur texnologiyalarni joriy etishda bir qator dolzarb muammolar mavjud. Eng avvalo, bu – texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi va VR/AR qurilmalarining yuqori narxi bilan bog‘liq. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida zarur uskunalar, dasturiy ta’minotlar va malakali texnik xodimlar yetishmasligi VR/AR texnologiyalarini to‘liq tatbiq etishni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, pedagogik yondashuvlar va o‘quv dasturlarining o‘zi ham VR/AR asosida qayta ishlab chiqilishi zarur bo‘ladi, bu esa o‘qituvchilardan qo‘shimcha tayyorgarlikni talab etadi.

Yana bir muhim jihat – talabalarning psixologik va fiziologik holatiga texnologik o‘quv uslublarining ta’siri. Masalan, ba’zi VR modellar uzoq muddat foydalanilganda bosh og‘rig‘i, ko‘z zo‘riqishi va holsizlikni keltirib chiqarishi


ISSN 3030-3907

mumkin. Shu boisdan ham VR/AR texnologiyalaridan foydalanishda individual yondashuv, nazorat va o‘quv yuklamasining muvozanati muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, VR/AR vositalari orqali egallangan ko‘nikmalarni real klinik sharoitda qo‘llash samaradorligini baholash uslublari ham hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu esa texnologiyalar samaradorligini aniq tahlil qilish va ularni takomillashtirishda muayyan to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

**XULOSA.** Bugungi kunda tibbiy ta’limda, xususan, akusherlik va ginekologiya sohasida VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan yanada interaktiv, xavfsiz va realizmga yaqin o‘quv muhitini taqdim etadi. VR va AR yordamida talabalar nazariy bilimlarni mustahkamlash, murakkab amaliy ko‘nikmalarni xavf-xatarsiz tarzda mashq qilish va klinik holatlarni real vaqtda modellashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bu texnologiyalar orqali o‘qitish nafaqat bilim va ko‘nikmalarni oshirish, balki talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga, tezkor fikrlashga va klinik holatlarni tahlil qilishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, AR/VR vositalarining texnik ta’minoti, yuqori xarajatlar, o‘qituvchilar va talabalar orasida raqamli savodxonlik yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud bo‘lib, ular ushbu texnologiyalarni to‘laqonli joriy etishda hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, VR va AR texnologiyalarining akusherlik va ginekologiya kursini o‘qitishdagi roli juda katta bo‘lib, u zamonaviy tibbiy ta’lim sifatini oshirish, talabalarning tayyorgarlik darajasini yaxshilash va amaliy ko‘nikmalarni samarali shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Kelajakda bu texnologiyalarni kengroq tatbiq etish uchun ilmiy-tadqiqotlar olib borish, infratuzilmani takomillashtirish va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish zarurdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Axmedov, O., & Islomov, D. (2021). Tibbiyot ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari: Virtual va kengaytirilgan haqiqatning roli. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Mirzaev, B. (2020). Akusherlik va ginekologiyada simulyatsion o‘quv metodlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Rustamov, Sh. (2019). Oliy tibbiyot ta’limida virtual haqiqat texnologiyalarining joriy etilishi va samaradorligi. Tibbiyot fanlari nomidagi jurnal, 4(2), 45-52.
4. Saidov, A. (2022). Akusherlik va ginekologiya fanida interaktiv o‘qitish usullarining zamonaviy tendensiyalari. Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy ishlari to‘plami, 10, 78-84.


ISSN 3030-3907

5. Qodirov, M. (2018). VR va AR texnologiyalarining tibbiyot ta’limidagi o‘rni va istiqbollari. Tibbiyot ta’limi va innovatsiyalar, 3(1), 12-20.
6. Karimova, N. (2023). Akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash tajribasi. O‘zbekiston tibbiyot universiteti axborotnomasi, 5(3), 34-41.
7. Barsom, E., & Smith, J. (2021). Virtual Reality in Medical Education: A Review of Current Applications in Obstetrics and Gynecology. Journal of Medical Simulation, 7(2), 115-130. https://doi.org/10.1016/j.jmsim.2021.05.004
8. Choi, J., & Kim, S. (2020). Augmented Reality-based Training Systems for Obstetrics and Gynecology Students. Healthcare Informatics Research, 26(1), 56-64. https://doi.org/10.4258/hir.2020.26.1.56
9. Davydov, A. V., & Petrova, M. S. (2019). Использование виртуальной и дополненной реальности в обучении акушерству и гинекологии. Медицинское образование, 5(3), 45-51. (In Russian)
10. García-Peñalvo, F. J., & Conde, M. Á. (2019). Virtual and Augmented Reality for Healthcare Training: A Systematic Review. Sensors, 19(11), 2574. https://doi.org/10.3390/s19112574
11. Huang, S., & Johnson, P. (2018). Enhancing Clinical Skills Training in Obstetrics and Gynecology with VR Simulations. Medical Teacher, 40(9), 950-957. https://doi.org/10.1080/0142159X.2018.1489875
12. Ismailova, N., & Rakhmonov, B. (2022). VR va AR texnologiyalarining tibbiyot ta’limidagi roli va istiqbollari. Oliy ta’limda innovatsiyalar, 4(2), 23-30. (In Uzbek)
13. Mackey, T. K., & Nayyar, G. (2016). Digital Technology and the Future of Medical Education in Obstetrics and Gynecology. Obstetrics & Gynecology Clinics of North America, 43(3), 451-464. https://doi.org/10.1016/j.ogc.2016.04.005
14. Rahimov, F. (2020). Zamonaviy tibbiyot ta’limida virtual va qo‘shimcha reallikdan foydalanish muammolari. Tibbiyot ta’limi, 8(1), 12-18. (In Uzbek)
15. Zhou, L., & He, Y. (2023). Application of Augmented Reality Technology in Clinical Teaching of Obstetrics and Gynecology. International Journal of Medical Informatics, 167, 104839. https://doi.org/10.1016/j.ijmedinf.2022.104839


ISSN 3030-3907

# DORI NOMI YASALISHIDA QO‘LLANILADIGAN MA'NOLI SO‘Z YASOVCHI QISMLAR

**Norqulova Diyora Odil qizi**
***Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi***
**Muxammadiyeva Rayxona Kamol qizi**
***Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi***
**Ergashova Shohista Sodiq qizi**
***Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi***
**Normurodova Sohiba Mallayevna**
***Samarqand davlat tibbiyot universiteti***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dori vositalarining nomlanishida ishlatiladigan ma'noli so‘z yasovchi qismlar (prefiks, suffiks va o‘zaklar) keng yoritiladi. Maqsad - farmatsevtika sohasidagi mutaxassislar, talabalar va dori nomlarining ma'nosini tushunishga qiziquvchilarga yordam berishdir. Dori nomlarining tuzilishini tushunish, ularning farmakologik xususiyatlari, kimyoviy tuzilishi va ta'sir mexanizmlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** dori nomi, farmatsevtika, prefiks, suffiks, o‘zak, farmakologiya, kimyoviy tuzilish, ta'sir mexanizmi.

**Аннотация:** В данной статье подробно освещаются смыслообразующие элементы, используемые в наименованиях лекарственных средств (префиксы, суффиксы и корни слов). Целью статьи является оказание помощи специалистам фармацевтической отрасли, студентам, а также всем, кто интересуется пониманием значения названий лекарственных препаратов. Понимание структуры названий лекарственных средств позволяет получить информацию об их фармакологических свойствах, химическом строении и механизмах действия.

**Ключевые слова:** название лекарственного средства, фармацевтика, префикс, суффикс, корень, фармакология, химическое строение, механизм действия.

**Abstract:** This article provides a comprehensive overview of meaningful word-forming elements used in drug nomenclature, including prefixes, suffixes, and roots. The aim of the article is to assist pharmaceutical professionals, students, and individuals interested in understanding the meaning of drug names. Understanding the structure of drug names makes it possible to obtain information about their pharmacological properties, chemical structure, and mechanisms of action.

**Keywords:** drug name, pharmaceuticals, prefix, suffix, root, pharmacology, chemical structure, mechanism of action.

**Kirish**



*ISSN 3030-3907*

Dori vositalarining nomlari nafaqat ularni identifikatsiya qilish uchun xizmat qiladi, balki ularning tarkibi, ta'sir mexanizmi va farmakologik guruhiga oid ma'lumotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Dori nomlari odatda ma'noli so‘z yasovchi qismlardan tashkil topgan bo‘lib, bu qismlar prefikslar (so‘z boshida keladigan qism), suffikslar (so‘z oxirida keladigan qism) va o‘zaklardan iborat bo‘ladi. Ushbu qismlarning ma'nosini bilish dori nomini tushunish va uning xususiyatlarini taxmin qilish imkonini beradi.

**Prefikslar**

Prefikslar dori nomining boshida keladi va uning ma'nosini o‘zgartiradi yoki to‘ldiradi. Ba'zi umumiy prefikslar va ularning ma'nolari:

- **Anti-:** qarshi (masalan, anti-biotik - bakteriyalarga qarshi)
- **Pro-:** oldin, uchun (masalan, pro-vitamin - vitamin hosil bo‘lishidan oldingi modda)
- **Re-:** qayta (masalan, re-hidratatsiya - qayta suv bilan ta'minlash)
- **De-:** yo‘qotish, olib tashlash (masalan, de-hidratatsiya - suvsizlanish)
- **Hipo-:** kam (masalan, hipo-tenziya - qon bosimining pasayishi)
- **Hiper-:** ko‘p, yuqori (masalan, hiper-tenziya - qon bosimining oshishi)

Misol uchun, "anti-histamin" dori nomi "anti-" (qarshi) prefiksi va "histamin" so‘zidan tashkil topgan. Bu dori histamin ta'siriga qarshi ekanligini anglatadi.

**Suffikslar**

Suffikslar dori nomining oxirida keladi va uning farmakologik guruhini, ta'sir mexanizmini yoki kimyoviy tuzilishini ko‘rsatishi mumkin. Ba'zi umumiy suffikslar va ularning ma'nolari:

- **-olol:** beta-blokerlar (masalan, metoprolol)
- **-azepam:** benzodiazepinlar (masalan, diazepam)
- **-statin:** HMG-CoA reduktaza ingibitorlari (xolesterinni kamaytiruvchi dorilar) (masalan, atorvastatin)
- **-cillin:** penitsillin antibiotiklari (masalan, ampicillin)
- **-azole:** antifungal dorilar (masalan, ketoconazole)
- **-pril:** ACE ingibitorlari (qon bosimini pasaytiruvchi dorilar) (masalan, enalapril)

Misol uchun, "atorvastatin" dori nomi "-statin" suffiksiga ega, bu uning xolesterinni kamaytiruvchi dori ekanligini ko‘rsatadi.


ISSN 3030-3907




**O‘zaklar**

O‘zaklar dori nomining asosiy ma'nosini tashkil qiladi va uning kimyoviy tuzilishi, ta'sir mexanizmi yoki maqsadli organini ko‘rsatishi mumkin. Ba'zi umumiy o‘zaklar va ularning ma'nolari:


- **-cef-:** sefalosporin antibiotiklari
- **-cort-:** kortikosteroidlar
- **-tox-:** toksik, zaharli
- **-andr-:** androgenlar (erkaklik gormonlari)
- **-estr-:** estrogenlar (ayollik gormonlari)
- **-barb-:** barbituratlar (sedativ dorilar)

Misol uchun, "seftriakson" dori nomi "-cef-" o‘zagiga ega, bu uning sefalosporin antibiotiklari guruhiga mansubligini ko‘rsatadi.

**Dori Nomi Yasalishiga Misollar**

Keling, ba'zi dori nomlarining tuzilishini ko‘rib chiqaylik:


ISSN 3030-3907




1. **Metoprolol:**
   - "Met-" (prefiks, metil guruhini ko‘rsatadi)
   - "-olol" (suffiks, beta-bloker ekanligini ko‘rsatadi)
2. **Ampicillin:**
   - "Ampi-" (prefiks, kimyoviy tuzilishdagi o‘zgarishni ko‘rsatadi)
   - "-cillin" (suffiks, penitsillin antibiotik ekanligini ko‘rsatadi)
3. **Ketoconazole:**
   - "Keto-" (prefiks, keton guruhini ko‘rsatadi)
   - "-azole" (suffiks, antifungal dori ekanligini ko‘rsatadi)
4. **Prednisolon:**
   - "Pred-" (prefiks, kimyoviy tuzilishdagi o‘zgarishni ko‘rsatadi)
   - "-cort-" (o‘zak, kortikosteroid ekanligini ko‘rsatadi)
   - "-olon" (suffiks, steroid ekanligini ko‘rsatadi)

**Xulosa**

Dori nomlarining tuzilishini tushunish farmatsevtika sohasidagi mutaxassislar va talabalar uchun juda muhimdir. Ma'noli so‘z yasovchi qismlar (prefiks, suffiks va o‘zaklar) dori vositasining farmakologik xususiyatlari,


ISSN 3030-3907

kimyoviy tuzilishi va ta'sir mexanizmi haqida ma'lumot beradi. Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar dori nomlarini tahlil qilish va ularning ma'nosini tushunishda yordam beradi. Dori nomlarining ma'noli qismlarini bilish, dori vositalari haqida ko‘proq ma'lumot olish va ularni to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization (WHO). International Nonproprietary Names (INN) for Pharmaceutical Substances. WHO Press, Geneva.
2. United States Adopted Names Council (USAN). Naming Guidelines for Pharmaceutical Substances. American Medical Association, USA.
3. Hillenbrand J., Smith M. Drug Nomenclature and Classification. Springer, Berlin–Heidelberg.
4. Katzung B.G., Trevor A.J. Basic and Clinical Pharmacology. 15th ed. McGraw-Hill Education, New York.
5. Rang H.P., Dale M.M., Ritter J.M., Flower R.J. Rang and Dale’s Pharmacology. 9th ed. Elsevier, London.
6. Lemke T.L., Williams D.A. Foye’s Principles of Medicinal Chemistry. 8th ed. Wolters Kluwer, Philadelphia.
7. Normurodova, Sokhiba. "THE SOCIAL AND CULTURAL IMPORTANCE OF THE LATIN LANGUAGE AND ITS PRESENT AND HISTORICAL LANDSCAPE." Центральноазиатский журнал академических исследований 2.5 (2024): 51-55.4.
8. Normurodova, S. M., & Yorova, S. K. (2023). Nemis tili frazeologik birikmalari va tilning lug‘at boyligi. Science and Education, 4(2), 1672-1675.
9. Yorova, S., Aytmuratova, P., Esanova, M., & Normurodova, S. (2023). Phraseological Units In The Medical Field Of English And Uzbek Cultures. Development and innovations in science, 2(2), 10-13.
10. Sohiba, N., & Perkhan, A. (2023). The role of latin terms in medicine. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12(10), 1-3.
11. Zafar, M., & Sohiba, N. (2023). Kundalik turmushda keng qo‘llanilishda bo‘lgan suyuqliklarni ifodalovchi dori shakllari haqida chet el ilmiy nashrlaridan olingan fikrlar.
12. Mallaevna, Normurodova Sokhiba, and Ayesha Khalid. "Topic chemical terminology of salts." International conference on multidisciplinary science. Vol. 1. No. 5. 2023.
13. Mallaevna N. S., Khalid A. Topic chemical terminology of salts //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 226-229.


ISSN 3030-3907

14. Mallaevna, N. S., & Chopra, A. (2024). Some features of prescription rules in medicine. technical science research in Uzbekistan, 2(1), 238-244.
15. Mallaevna, N. S., and M. Fatima. "Pathological conditions and processes, different physical properties qualities and other signs." Yangi O‘zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi 1.7 (2023): 91-95.
16. Mallaevna, N. S. (2023). THE MAIN INDICATORS OF THE COMMUNICATION CULTURE OF A MEDICAL WORKER. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(7), 85-88.
17. Mallaevna, N. S. (2024). THE SOCIAL AND CULTURAL IMPORTANCE OF THE LATIN LANGUAGE AND ITS PRESENT AND HISTORICAL LANDSCAPE. Central Asian Journal of Academic Research, 2(5), 51-55.
18. .Дониёрова, С. О., Байкулов, А. К., Саветов, К. Т., & Ташанов, О. С. (2023). ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ СОСТАВА ГРАНУЛ НА ОСНОВЕ СУХОГО ЭКСТРАКТА СОЛОДКИ. PEDAGOGS, 46(1), 140-142.
19. Ташанов, О. С., & Саветов, К. Т. (2023). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В КАЧЕСТВЕ СРЕДСТВ ДЛЯ ЛЕЧЕНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ РТА. Research and Publications, 1(1), 42-45.
## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.D.D. Alijanov, D.A. Egamov, O.B. Parpiyev “Nazariy elektrotexnika” o‘quv qo‘llanma. Andijon; 2022..



ISSN 3030-3907

2. M. Rasham, "Analysis of Wind Speed Data and Annual Energy Potential at Three locations in Iraq", Int.
3. Journal of Computer Applications 137(11):5-16, 2016
4. 3.A. Azad, M. Rasul, T. Yusuf, "Statistical diagnosis of the best Weibull methods for wind power
5. assessment", Energies 7 (2014) 3056-3085
6. 4.S. Ali, S. Lee, Ch. Jang, "Statistical analysis of wind characteristics...", 2018
7. 5.M. Dahbi et al., "The Analysis of Wind Power Potential in Sahara Site of Algeria", Energy Procedia 36
8. Xolmirzayev, J. YU. (2022). ZONALNOE STROENIE KRISTALLOV V PRIBLIJENII MNOGOZONNOY (KEYNA) MODELI. Sharq Uyg‘onishi: Innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 2(12), 748-753.
9. Zuhritdinov Alisher Faraxidin o‘g‘li, Yo‘lchiyev Mash'albek Erkinovich, Xakimov Temurbek Bahodirjon o‘g‘li (2023). QATTIQ JISMLARNING CHIZIQLI KENASH KOEFFİSİENTINING HARORATGA BOG‘LILIGINI O‘rganish. AMALIY FAN VA TEXNOLOGIYA XALQARO BULLETENI SJIF = 5.955 , https://doi.org/10.5281/zenodo.7969053 .
10. Xakimov Temurbek Boxodirjon o`g`li , Rahmonov Asliddin Abdulhamid o‘g‘li .( 2024). QUYOSH xujayrasi uchun INVERTORLAR VA NAZORATCHILARNI TANLASH. LUChShIE INTELLEKTUALNYE ISLEDOVANIYA.149-152.
11. Muhiddin Atajonov , Qudratbek Mamarasulov , Odilbek Dexqonboyev , Temur Xakimov .( 2024). Fotovoltaik modul asosida quyosh panellari modelini tadqiq qilish. https://doi.org/10.1063/5.0241785 . Amaliy fan va texnikaning zamonaviy muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferentsiya AIP Conf. Proc.
12. Xakimov Temur , Abdumutalipov - Orzumurod o‘g‘li Shahobiddin .( 2024). Ishlab chiqarish komparalarida energiya samaraliligini oshirish uchun energiyalarni boshqaruv tizimini tamoqlash. Luchshie intellektualnye isledovaniya. ISSN : 3030-3680 . 81-86.

# YADRO KIMYOSINING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

**Akramqulov Tohir Axrorovich**
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti talabasi*
**Karjavov Abdixakim Raxmonovich**
*Samarqand davlat tibbiyot uniersiteti*
*Samarqand viloyati O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yadro kimyosining tibbiyotdagi ahamiyati va qo‘llanilishi haqida ma‘lumot beradi. Yadro kimyosi orqali tibbiyot sohasida tashxis qo‘yish, davolash va tadqiqotlar olib borishda foydalaniladigan kimyoviy va biologik jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqot radioaktiv izotoplar, yadroviy diagnostika va radioterapiyaning tibbiyotga qo‘shgan hissasini yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** Yadro kimyosi, radioaktiv izotoplar, yadroviy diagnostika, radioterapiya, radiofarmatsevtika, diagnostika, gamma nurlanish, saraton davolash, nurlanish terapiyasi, nuklein kislotalar, radiatsion xavfsizlik, nurlanishdan himoya, yadrotexnologiyasi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности и применении ядерной химии в медицине. Химические и биологические процессы, используемые в медицине для диагностики, лечения и исследований, анализируются с помощью ядерной химии. В исследовании освещается вклад радиоактивных изотопов, ядерной диагностики и радиотерапии в медицину.

**Ключевые слова:** Ядерная химия, радиоактивные изотопы, ядерная диагностика, радиотерапия, радиофармпрепараты, диагностика, гамма-излучение, лечение рака, лучевая терапия, нуклеиновые кислоты, радиационная безопасность, радиационная защита, ядерные технологии.

**Abstract:** This article provides information about the importance and application of nuclear chemistry in medicine. Through nuclear chemistry, chemical and biological processes used in medical diagnosis, treatment and research are analyzed. The study highlights the contribution of radioactive isotopes, nuclear diagnostics and radiotherapy to medicine.

**Key words:** Nuclear chemistry, radioactive isotopes, nuclear diagnostics, radiotherapy, radiopharmaceuticals, diagnostics, gamma radiation, cancer treatment, radiation therapy, nucleic acids, radiation safety, radiation protection, nuclear technology.

**Krish.**

Yadro kimyosi fani elementlarning yadro xususiyatlari va radioaktiv izotoplar bilan bog‘liq kimyoviy jarayonlarni o‘rganadi. Ushbu soha tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kasalliklarni erta tashxislash va davolashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, saraton kasalligini davolashda radioterapiya


ISSN 3030-3907

usullaridan foydalanish yoki diagnostika jarayonlarida radioaktiv moddalar bilan ishlash yadro kimyosining tibbiyotga ta‘siri ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi yadro kimyosining tibbiyotdagi o‘rni va amaliyotini chuqur tahlil qilishdir.

**Yadro kimyosining tibbiyotdagi umumiy qo‘llanilishi:**

Yadro kimyosining asosiy vazifalaridan biri radioaktiv izotoplar yordamida biologik jarayonlarni o‘rganish va ulardan amaliy tibbiyotda foydalanish hisoblanadi. Yadro texnologiyalari tashxis qo‘yish, kasalliklarni davolash va tibbiy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi.

Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

**Diagnostika:** Radioaktiv moddalar yordamida ichki organlar faoliyatini kuzatish va kasalliklarni erta aniqlash.

**Davolash:** Radioterapiya yordamida saraton hujayralarini yo‘q qilishni misol qilib olishimiz mumkin.

**Tadqiqot:** Biologik jarayonlarni o‘rganishda izotoplardan foydalanish.

**Radioaktiv izotoplarning tibbiy qo‘llanilishi:** Radioaktiv izotoplar kimyoviy jihatdan tibbiyotda katta ahamiyatga ega.

**Ularning asosiy qo‘llanilish sohalari:**

**Diagnostik izotoplar:** Teknetsiy-99 bu izotop ichki organlarni kuzatish va ularning funktsiyalarini baholash uchun ishlatiladi. U gamma nurlanishini chiqaradi, bu esa maxsus uskunalar yordamida aniqlanadi. Yod-123 va Yod-131 izotoplari qalqonsimon bez kasalliklarini tashxislash va davolashda ishlatiladi.Indiy-111 bu izotop asosan leykotsitlar sintrigrafiya uchun ishlatiladi Bu izotop asosan organizmdagi yashirin infeksiya o`choqlarini topish. Oyoq,o`pka,qorin bo`shlig`idagi yallig`lanishni aniqlashda qo`llaniladi. Ba`zi holatlarda indiy-markazlangan antikorlar orqali saraton diagnostikasida ham qo`llaniladi. Fluor-18 PET diagnostikasida positron chiqaradi-PET uchun asosiy izotop va FDG(fluordezoksiglukoza) shaklida ishlatiladi. Qo`llanishi asosan saraton o`choqlarini aniqlash, metastazlarni topish, miya faoliyatini tekshirish uchun. Afzalliklari juda aniq tasvir va o`sma faoliyatini ko`rsatadi.

**Yadro tibbiyotining diagnostikada qo‘llanilishi**: Yadro tibbiyoti kichik miqdordagi radioaktiv moddalarni qo‘llab, tananing ichki tuzilmalari va funksiyalarini tasvirlash imkonini beradi. Bu usul ko‘pincha saraton, yurak kasalliklari va boshqa jiddiy kasalliklarni erta aniqlashda qo‘llaniladi.

Umuman olganda, radioizotoplar diagnostikada:

- kasalliklarni erta aniqlash,
- ularning rivojlanish bosqichini baholash,
- davolash strategiyasini tanlash,
- davolash natijasini kuzatib borish uchun beqiyos ahamiyatga ega.



ISSN 3030-3907

Shu bois yadro tibbiyotidagi izotoplar zamonaviy diagnostikaning ajralmas qismi bo‘lib, bemorlarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish va samarali davolash imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

**Radiofarmatsevtik preparatlar**: Radiofarmatsevtiklar radioaktiv izotoplar va biologik faol moddalarni birlashtirib, maqsadli organ yoki to‘qimalarga yo‘naltiriladi. Bu usul diagnostika va davolashda yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi.Radiofarmatsevtik preparatlarning asosiy vazifalari **Tc-99m-MDP** – suyak tizimi tekshiruvi, **Tc-99m-MIBI** – yurak perfuziyasi, **Tc-99m-DTPA** – buyrak faoliyati, **Tc-99m-HIDA** – jigar va o‘t yo‘llari diagnostikasi

**Yadro tibbiyotining afzalliklari**:***Kasalliklarni erta aniqlaydi*** – hatto oddiy tekshiruvlarda ko‘rinmaydigan o‘zgarishlarni ham topadi., **Organlar funksiyasini ko‘rsatadi** – organ qanday ishlayotgani aniq baholanadi., **Tasvir aniqligi yuqori** – PET, SPECT orqali o‘sma va yallig‘lanishlar aniq ko‘rinadi., **Xavfsiz** – ishlatiladigan izotoplar tanadan tez chiqadi, zarar kam., **Aniq nishonga yo‘naltirilgan davolash** – radioizotoplar faqat kasallangan joyga ta’sir qiladi.,**Og‘riqsiz va invaziv bo‘lmagan usul** – jarrohlik aralashuvisiz o‘tkaziladi., **Ko‘plab organlar uchun qo‘llanadi** – yurak, miya, suyak, qalqonsimon bez va boshqalar.

**Radioaktiv izotoplarning tibbiyotdagi qo‘llanilishi**: Radioaktiv izotoplar tibbiyotda diagnostika va davolash maqsadlarida keng qo‘llaniladi. Masalan, **Technetium-99** izotopi diagnostik skanerlarda, **I-131** esa qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda ishlatiladi., **Lu-177** – prostata saratoni, neyroendokrin o‘smalar, **Y-90 (Ytriy-90)** – jigar o‘smalarini davolash (mikronurlantirish), **Sm-153** – suyak metastazlaridagi og‘riqlarni kamaytirish

**Yadro tibbiyotining cheklovlari**: Yadro tibbiyoti protseduralari ba'zan uzoq vaqt talab qilishi mumkin, chunki radioaktiv moddalar kerakli joyga to‘planishi uchun vaqt kerak bo‘ladi.. Radipaktiv moddalar bilan ishlash cheklangan – maxsus laboratoriya, xavfsizlik tizimi va ruxsat talab etiladi. Ba`zi bemorlarda qo`llab bolmaydi – homiladorlik, og‘ir allergiya, buyrak yetishmovchiligi bo‘lsa ehtiyotkorlik kerak.Qimmat uskunalar– PET, SPECT, siklotron kabi apparatlar narxi juda yuqori. Shuningdek, ba'zi hollarda tasvir sifatining aniqligi kompyuter tomografiyasi (CT) yoki magnit-rezonans tomografiyasi (MRI) kabi usullardan past bo‘lishi mumkin.

**Terapiyada foydalaniladigan izotoplar:** Kobalt-60 izotopi radioterapiyada ishlatiladi. Bu usulda kobalt-60 ning beta va gamma nurlari hujayralarni yo‘q qilish uchun qo‘llaniladi. Radioterapiya jarayonida o‘simta to‘qimalariga zarar yetkazmasdan, uning o‘sishini to‘xtatishga qaratilgan juda yuqori aniqlikda nurlanish ta'sir ko‘rsatadi. Stronsiy-89 izotopi suyak saratoni bilan bog‘liq og‘riqni kamaytirish uchun ishlatiladi. Lutesiy-177 izotopi nishonga


ISSN 3030-3907


yo`naltirilgan terapevtik izotop. Bu usuldan neyroendokrin o`smalar, prostate saratonida qo`llaniladi.So`glom to`imaga zarar bermay, o`smaga borib to`planadi

**Radioterapiya va yadroviy davolash usullari:** Radioterapiya yadro kimyosining amaliy qo‘llanilishi bo‘lib, u saraton va boshqa o‘sma kasalliklarini davolashda keng qo‘llaniladi. Radioterapiyaning asosiy maqsadi zararli hujayralarni yo‘q qilishdir. Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

**Yuqori energiyali nurlanish:Tashqi nurlanish(EBRT)**. Kopalt-terapiya, Lineyka tezlatgich (LINAC) terapiyasi, IMRT, IGRT– nurlarning aniq yo‘naltirilgan shakli, Proton terapiyasi– proton nurlari bilan juda aniqlikda davolash.Qo`llanadi saraton hujayralarini yo`qotish, o`sma o`lchamini kichraytirish. Brachiterapiya (ichki nurlanish) radioaktiv manba bevosita o`sma ichiga yoki yoniga joylashtiriladi. Qo`llanishi prostate saratoni, bachadon bo`yni saratoni, ko`z (retinoblastoma), teri o`smalarida foydalaniladi. EBRT va Brachiterapiya birgalikda yoki alohida qo‘llanib, radioterapiya orqali **kasallangan hududni aniq va xavfsiz tarzda davolash** imkonini yaratadi, sog‘lom to‘qimaga minimal zarar yetkazadi va shifokorlarga bemor uchun eng mos davolash rejasini tanlash imkonini beradi.

**Tayanch texnologiyalar:** Lineer tezlatkichlar va radioaktiv implantlar yordamida nurlanish ta‘minlanadi.





**Radiofarmatsevtika:** Radiofarmatsevtik moddalar tibbiyotda keng qo‘llanilib, ular radioaktiv izotoplar va kimyoviy birikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dorilar turli kasalliklarni aniqlash va davolashda ishlatiladi.

**Pozitron-emission tomografiya (PET): PET** — bu zamonaviy yadro tibbiyoti diagnostika usuli bo‘lib, organizmda metabolik jarayonlarni va hujayra faoliyatini **3D tasvirda** ko‘rsatadi. U radioaktiv **pozitron chiqaruvchi izotoplar** (masalan, F-18) bilan ishlaydi. PET — bu **organ va hujayralarning funksional faoliyatini aniqlovchi**, yuqori aniqlikdagi diagnostik usul bo‘lib, saraton, yurak va miya kasalliklarini erta aniqlash va davolash samaradorligini baholashda juda muhimdir.

**Sintigrafiya: Sintigrafiya** — radioaktiv izotoplar yordamida organizmdagi **organ va to‘qimalarning funksional faoliyatini** tasvirlash usuli.



ISSN 3030-3907

U **radiofarmatsevtik preparatlarni** bemorga yuborish orqali amalga oshiriladi. Preparat ma’lum bir organga to‘planadi va gamma kameralar yordamida tasvir olinadi. Sintigrafiya — radioaktiv izotoplar yordamida organ va to‘qimalarning **funksional faoliyatini baholaydigan**, invaziv bo‘lmagan va turli kasalliklarni erta aniqlash imkonini beruvchi diagnostika usulidir.

**Biologik ta‘sirlari:** Radioaktiv izotoplarning tibbiy qo‘llanilishi biologik jarayonlarga turli ta‘sir ko‘rsatadi .

Diagnostik biologik ta’sir **funksional o‘zgarishlarni aniqlash** va minimal zarar bilan cheklanadi..Terapevtik biologik ta’sir **kasallangan to‘qimani yo‘q qilish**ga qaratilgan, lekin yuqori doza sababli sog‘lom hujayralarga nojo‘ya ta’sir bo‘lishi mumkin..Yadro tibbiyoti **organizmga nurlanish xavfini minimal darajada saqlab**, kasalliklarni aniqlash va davolashda samarali vosita hisoblanadi.

**Huquqiy dozalar:** Kam miqdordagi radiatsiya organizmga zarar yetkazmaydi va biologik jarayonlarni kuzatishga imkon beradi.Masalan: I-123 izotopi 2-4 mSv, Ga-67 izotopi 15-20 mSv, I-131 izotopi 1-7 GBq(27-190 mCi) Terapevtik dozalar diagnostik dozalarga qaraganda yuqori bo‘lib, bemor nazorati va himoya choralarini talab qiladi.

**Yon ta‘sirlar:** Yuqori dozalar esa sog‘liq uchun xavf tug‘dirishi mumkin, Diagnostik dozalarda minimal, lekin terapiyada doza yuqori bo‘lgani uchun. qisqa muddatli **yallig‘lanish**, **qorin yoki suyak og‘riqlari.**qon hujayralarining qisqa muddatli kamayishi, ba’zi holatlarda oshqozon-ichak bezovtaligi, homilador ayollarda va bolalarda ehtiyotkorlik zarur.

**Tadqiqot yutuqlari:** So‘nggi yillarda yadro kimyosi orqali olib borilgan tadqiqotlar tibbiyotga katta yangiliklar olib kirdi.

- Immunoterapiyada radioaktiv markerlar qo‘llanilishi.
- Organlar faoliyatini nazorat qilish uchun yangi izotoplarning yaratilishi.
- Nuklear texnologiyalar yordamida genetik tadqiqotlar.

**Diagnostika yutuqlari**

- **PET va SPECT texnologiyalarining rivojlanishi**
  - Organ va to‘qimalarning funksional faoliyatini 3D ko‘rinishda aniqlash imkoniyati paydo bo‘ldi.
- **Radiofarmatsevtik preparatlarning yangi turlari**
  - Masalan, F-18-FDG yordamida saraton, miya va yurak faoliyati yuqori aniqlikda tekshiriladi.
- **Hybrid tizimlar** (PET/CT, SPECT/CT, PET/MR)
  - Anatomik va funksional ma’lumotlarni birlashtirib, tashxisni aniq va tezkor qiladi

Yadro kimyosining tibbiyotdagi ahamiyati juda keng bo‘lib, tashxis qo‘yish, davolash va ilmiy tadqiqotlarda o‘z o‘rniga ega. Radioaktiv izotoplar va radioterapiya yordamida saraton va boshqa kasalliklarni samarali davolash


ISSN 3030-3907

imkoniyati yaratilmoqda. Yadro kimyosiga asoslangan innovatsiyalar kelajakda tibbiyot sohasini yanada rivojlantirishi kutilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. International Atomic Energy Agency (IAEA) – Radioactive Isotopes in Medicine. Radiologyinfo.org – Radiology and Nuclear Medicine Overview. Journal of Nuclear Medicine and Biology. International Atomic Energy Agency (IAEA) – *Radioactive Isotopes in Medicine*. URL: https://www.iaea.org
2. Radiologyinfo.org – *Radiology and Nuclear Medicine Overview*. URL: https://www.radiologyinfo.org
3. Journal of Nuclear Medicine and Biology – Elsevier. URL: https://www.journals.elsevier.com/nuclear-medicine-and-biology
4. National Institutes of Health (NIH) – *Nuclear Medicine and Its Role in Modern Healthcare*. URL: https://www.nih.gov
5. World Health Organization (WHO) – *Radiation Medicine and Safety Guidelines*. URL: https://www.who.int
6. PubMed – *Research on Nuclear Medicine Applications in Oncology*. URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov
7. Fayzullayev N., Akmalaiuly K., Karjavov A. Catalytic synthesis of a line by acetylene hydration // Известия НАН РК. Серия химии и технологии. – 2020. – N .2. -C. 23-30.
8. 11 Fayzullayev N. I., Karjavov A.R., Yusupova S. S. Catalytic Synthesis of Acetone Direct Acetylene Hydration // International journal of Advanced Science and Technology . – 2020 .- T.29. – N.05.- C 4507-4514.
9. Karjavov A. R., Fayzullaev N. Study of the kinetics and mechanism of the reaction of the catalytic hydrochloration of acytylene// AIP Conference proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. -T.3045. – N. 1.-C.060046.
10. Fayzullayev N., Akmalaiuly K., Karjavov A. Catalytic synthesis of a line by acetylene hydration. (2020),2, Number 440 (2020,),23-30 (Электронный ресурс ).
11. Karjavov A.R., Fayzullayev N. Determination of technological parameters of producing vinylchloride from from acetylene // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC ,2024.- T.3045. -N. 1.- C.060045.
12. Karjavov A., Fayzullayev N.,Baykulov A. Production of acetone by catalytic hydration of acetylene // E3S Web of Conference . -EDP Science ,2023. -T .389.- C.01046



ISSN 3030-3907

# HAQIQIY TOVUSH MANBASIDAN FOYDALANMASDAN KOJUXNING SHOVQIN IZOLYATSIYASI SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING SINOV USULI

**Sh.G. Musaev**

*Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanoat texnologik uskunalari uchun qo‘llaniladigan akustik kojuxlarning shovqin izolyatsiyasi samaradorligini baholashda o‘zaro ta’sir (reciprocity) usulining qo‘llanilishiga oid normativ talablar va o‘lchov metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot GOST 31274 va boshqa tegishli standartlar asosida reverberatsion kamerada sun’iy shovqin manbalari yordamida izolyatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan. O‘lchov jarayonida karnaylarning joylashuvi, yo‘naluvchanligi, mikrofon nuqtalarining tanlanishi, shartli o‘lchov hajmi va chastota polosalari kabi omillarning izolyatsiya natijasiga ta’siri yoritilgan. Oktavali va uchdan bir oktavali polosalar bo‘yicha o‘lchangan shovqin bosimi darajalari asosida izolyatsiya ko‘rsatkichlarini hisoblashning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘zaro ta’sir usulining real shovqin manbasidan foydalanmasdan turib kojuxlarning akustik samaradorligini ishonchli baholash imkoniyatini berishini tasdiqlaydi hamda bu metod sanoatdagi mehnat xavfsizligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** akustik kojux, tovush izolyatsiyasi, shovqin, o‘zaro ta’sir usuli, reverberatsion kamera, uchdan bir oktavali polosalar, A-korreksiyali tovush darajasi, sun’iy shovqin manbasi, akustik o‘lchov metodikasi, GOST 31274.

**Аннотация:** В данной статье анализируются нормативные требования и методика измерений при применении метода взаимности (reciprocity method) для оценки эффективности звукоизоляции акустических кожухов, используемых для промышленного технологического оборудования. Исследование направлено на определение показателей изоляции в реверберационной камере с использованием искусственных источников шума в соответствии с требованиями ГОСТ 31274 и других соответствующих стандартов. В работе раскрыто влияние таких факторов, как расположение громкоговорителей, их направленность, выбор точек измерения микрофонов, условный объём измерений и частотные полосы, на итоговый результат звукоизоляции. Показаны преимущества расчёта показателей изоляции на основе уровней звукового давления, измеренных в октавных и треть октавных полосах частот. Результаты исследования подтверждают, что метод взаимности позволяет надёжно оценить акустическую эффективность кожухов без использования реального источника шума и является важным инструментом повышения безопасности труда в промышленной среде.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВ:** акустический кожух, звукоизоляция, шум, метод взаимности, реверберационная камера, треть октавные полосы, A-



ISSN 3030-3907

корректированный уровень звука, искусственный источник шума, методика акустических измерений, ГОСТ 31274.

**Abstract:** This article analyzes the regulatory requirements and measurement methodology for applying the reciprocity method to evaluate the sound insulation performance of acoustic enclosures used for industrial technological equipment. The study focuses on determining insulation indicators in a reverberation chamber using artificial noise sources in accordance with GOST 31274 and other relevant standards. The influence of key factors—such as loudspeaker placement, directivity, selection of microphone measurement points, the conditional measurement volume, and frequency bands—on the final sound insulation result is examined. The advantages of calculating insulation parameters based on sound pressure levels measured in octave and one-third-octave bands are demonstrated. The findings confirm that the reciprocity method enables reliable assessment of enclosure acoustic performance without the need for a real noise source, highlighting its importance for improving occupational safety in industrial environments.

**Keywords:** acoustic enclosure, sound insulation, noise, reciprocity method, reverberation chamber, one-third-octave bands, A-weighted sound level, artificial noise source, acoustic measurement methodology, GOST 31274.

**Kirish.**

Sanoat sharoitida ishlatiladigan mexanik, pnevmatik va elektr uskunalar odatda yuqori darajadagi shovqin manbai bo‘lib, ularning ish jarayonida hosil bo‘ladigan shovqin bosimi darajasi ish o‘rinlari xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori darajali shovqin bosimi mehnat unumdorligini pasaytiradi, operatorning fiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ishlab chiqarish xatarlarini oshiradi. Shu sababli texnologik uskunalar uchun kojuxlar qo‘llash shovqin bosimi darajasini kamaytirishning samarali texnik vositalaridan biri sifatida qaraladi[1].

Kojuxning shovqin yutish va izolyatsiyasi samaradorligini baholashda asosiy vazifa uning konstruktiv xususiyatlari va materiallari shovqin bosimi darajasiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdir. Ushbu jarayonda o‘lchov natijalarining takrorlanuvchanligi va ishonchliligini ta’minlash maqsadida sinovlar standartlashtirilgan metodlar asosida olib borilishi zarur[2]. Mavjud normativ talablarga ko‘ra, kojuxning izolyatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlash laboratoriya sharoitida haqiqiy shovqin manbasidan foydalanmasdan, sun’iy shovqin manbalari yordamida bajarilishi mumkin. Bunday yondashuv kojux konstruktsiyalarining izolyatsiya hamda shovqin yutish xususiyatlarini baholashga imkon beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** ISO 11546-1:1995 Acoustics - Determination of sound insulation performances of enclosures - Part 1: Measurements under laboratory conditions (for declaration purposes) hamda ГОСТ 31298.1-2005 “Определение звукоизоляции кожухов Часть 1 Лабораторные измерения для заявления значений шумовых



ISSN 3030-3907

характеристик”ga asosan shovqin izolyatsiya hamda yutuvchi kojuxlarni samaradorligi aniqlanadi. GOSTga ko‘ra kojuxlarni sinashning 3 ta usuli (1-jadvalga qarang) mavjud bo‘lib, tanlangan usulga qarab, kojuxning shovqinni yutish hamda izolyatsiyasi uskuna (agregat) tomonidan tarqatiladigan shovqin quvvati darajasi yoki shovqin bosimi darajasining kamayishi orqali aniqlanadi. Ushbu usullar faqat kojux ichiga haqiqiy shovqin manbasi (ya’ni, kojux mo‘ljallangan uskuna) joylashtirilgan holatlarda qo‘llanadi. Agar bu usullarni qo‘llash imkoni bo‘lmasa, mos ravishda o‘lchovlarni o‘zaro ta’siri (reciprocity) usuli yoki sun’iy shovqin manbasi usuli yordamida amalga oshirish mumkin.

**1-jadval**

**Qo‘llaniladigan shovqin o‘lchash usullari**

| Sinash usuli | Sinov maydoni | Tovushni o‘lchash usuliga davlatlararo yoki xalqaro standart |
|---|---|---|
| Real shovqin manbai usuli | Reverberatsiya kamerasi | ГОСТ 31274 |
| | Qattiq devorli sinov xonasi | ГОСТ 31276 |
| | Maxsus reverberatsion kamera | ГОСТ 31276 |
| | Xonadan tashqarida yoki katta xonada | ГОСТ 31275 |
| | Talablar tartibga solinmagan | ГОСТ 30457 |
| | Xonadagi yoki undan tashqaridagi tovush qaytaruvchi tekislik ustidagi sezilarli darajada erkin tovush maydoni | ГОСТ 31172 |
| | Xonadan tashqarida yoki katta xonada | ГОСТ 30683 |
| O‘zaro ta’sir usuli | Reverberatsiya kamerasi | ГОСТ 31274 |
| Sun’iy shovqin manbai usuli | Reverberatsiya kamerasi | ГОСТ 31274 |
| | Qattiq devorli sinov xonasi | ГОСТ 31276 |
| | Maxsus reverberatsion kamera | ГОСТ 31276 |
| | Xonadan tashqarida yoki katta xonada | ГОСТ 31275 |
| | Talablar tartibga solinmagan | ГОСТ 30457 |
| | Xonadagi yoki undan tashqaridagi tovush qaytaruvchi tekislik ustidagi erkin tovush maydoni | ГОСТ 31172 |
| | Xonadan tashqarida yoki katta xonada | ГОСТ 30683 |

**NATIJALAR.** O‘lchash vositalari, shu jumladan mikrofonlar va kabellar GOST 17187 bo‘yicha 1-sinf talablariga javob berishi kerak. Doimiy bo‘lmagan tovushni o‘lchashda 1-sinf integrallovchi tovush o‘lchagichlar qo‘llaniladi. Chastotalarni oktava va uchinchi oktava polosalarida o‘lchash uchun o‘lchash


ISSN 3030-3907

vositalari GOST 17168 bo‘yicha 1-sinf filtrlariga ega bo‘lishi kerak. Har bir o‘lchash seriyasidan oldin va keyin o‘lchash vositalari ± 0,3 dB aniqlikda akustik kalibrator bilan kalibrlanadi. Agar o‘lchash vositalarining aniqligi barqarorligini nazorat qilishni ta’minlashi isbotlangan bo‘lsa, elektr yoki boshqa kalibrlash usulini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

Mashinaning odatiy ish sikli davomida hosil bo‘ladigan shovqin quvvatining o‘rtacha darajasi aniqlanadi. Kojux o‘rnatilgan va o‘rnatilmagan sharoitlarda o‘lchovlar bajariladi. Oktava diapozonining o‘rtageometrik chastotalarida yoki uch-oktava chastota polosalarida tovush quvvati bo‘yicha tovush izolyatsiyasi qiymatlari $D_W$, hamda A-korreksiyali tovush quvvati bo‘yicha izolyatsiya ko‘rsatkichi $D_{WA}$ quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$D_w = L_w(kojuxsiz) - L_w(kojux\ bilan) \quad (1)$$

$$D_{WA} = L_{WA}(kojuxsiz) - L_{WA}(kojux\ bilan) \quad (2)$$

Bunda, $L_W$ — oktava diapozonining o‘rtageometrik chastotalari yoki uch-oktava chastota polosalaridagi tovush quvvati darajasi, dB; $L_{WA}$ — A-korreksiya qo‘llangan tovush quvvati darajasi, dBA.

O‘lchash diapazoni 100 dan 5000 Hzgacha bo‘lgan chastotalarning kamida uchdan bir oktavali polosalari va 125 dan 4000 Hzgacha bo‘lgan oktavali polosalarni qamrab olishi kerak. 50 dan 10000 Hzgacha bo‘lgan uch oktavali va 63 dan 8000 Hzgacha bo‘lgan oktavali polosalar afzalroqdir. A bo‘yicha korrektirlangan tovush quvvati darajalari uchdan bir oktavali chastota polosalaridagi tovush quvvati darajalari asosida — GOST 31274 talablariga muvofiq; oktavali chastota polosalaridagi tovush quvvati darajalari asosida esa — GOST 31276 va GOST 30457 talablariga muvofiq hisoblanadi.

GOST 31276 qo‘llanilganda, A bo‘yicha korrektirlangan tovush quvvati darajasi o‘rtacha tovush darajasi bo‘yicha hisoblanadi. GOST 31275 ga muvofiq esa, A bo‘yicha korrektirlangan tovush quvvati darajasini chastota polosalaridagi tovush quvvati darajalari bo‘yicha yoki o‘lchov yuzasidagi o‘rtacha tovush bosimi darajasi bo‘yicha hisoblashga ruxsat etiladi. Chastota polosalaridagi tovush quvvati darajalarining A bo‘yicha korrektirlangan tovush quvvati darajasiga muvofiqligini ta’minlash maqsadida, A bo‘yicha korrektirlangan tovush quvvati darajasini chastota polosalaridagi tovush quvvati darajalari asosida hisoblash usuli afzal hisoblanadi.

Agar sinov maydoni va mikrofonning joylashuvi kojux o‘rnatilgan va kojux o‘rnatilmagan holatdagi o‘lchovlarda bir xil bo‘lsa, tovush quvvati darajalaridagi farq — tanlangan tovush quvvatini aniqlash standartiga muvofiq hisoblangan o‘rtacha tovush bosimi darajalaridagi farqqa teng bo‘ladi.

Bu shuni anglatadiki: sinov sharoitlari bir xil bo‘lganida (ya’ni akustik sharoitlarga kiritiladigan tuzatishlar o‘zgarmaganda), keyinchalik ularning farqini topish uchun tovush quvvati darajalarini alohida hisoblash talab qilinmaydi.

Ammo agar kojux bilan va kojuxsiz o‘lchovlarni qisqa vaqt ichida, sinov sharoitlarining to‘liq bir xilligini saqlagan holda o‘tkazish imkoni bo‘lmasa, unda


ISSN 3030-3907

tovush quvvati darajalarini albatta hisoblash zarur. Nazorat nuqtasida tovush bosimi bo‘yicha tovush izolyatsiyasini aniqlash O‘lchovlar GOST 31172 yoki GOST 30683 talablariga muvofiq bajariladi. Mashinaning odatdagi ish jarayonida hosil bo‘ladigan tovushning o‘rtacha tovush bosimi darajasi aniqlanadi.

Oktavali yoki uchdan bir oktavali chastota polosalaridagi tovush bosimi bo‘yicha tovush izolyatsiyasi $D_p$, hamda A-korreksiyalangan tovush darajasi bo‘yicha izolyatsiya $D_{pA}$quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$D_p = L_p(kojuxsiz) - L_p(kojux\ bilan) \quad (3)$$

$$D_{pA} = L_{pA}(kojuxsiz) - L_{pA}(kojux\ bilan) \quad (4)$$

Bu erda Lr-nazorat punktidagi oktava yoki uchinchi oktava chastota diapazonlarida radiatsiyaning tovush bosimi darajasi, db;

Lra-nazorat nuqtasida radiatsiya tovushining o‘lchangan yoki hisoblangan darajasi, DBA.

Bunda, $L_p$— nazorat nuqtasida oktavali yoki uchdan bir oktavali chastota polosalarida o‘lchangan tovush bosimi darajasi, dB; $L_{pA}$esa — nazorat nuqtasida o‘lchangan yoki hisoblangan A-korreksiyalangan tovush darajasi, dBA.”

**MUHOKAMA.** O‘zaro o‘lchash (o‘zaro ta’sir) usuli. Reverberatsion kamerada GOST 31274 talablariga muvofiq reverberatsion tovush maydoni hosil qilinadi va kameradagi hamda kojux ostidagi tovush bosimi darajalari farqi aniqlanadi.

Kojux polga shunday joylashtirilishi kerakki, uning hech bir tomoni kameraning devorlari bilan parallel bo‘lmasin. 100 dan 10 000 Hz gacha bo‘lgan chastota diapazonida o‘lchovlar o‘tkazilganda kojux bilan kamera devorlari (yoki shipi) orasidagi masofa ushbu diapazonning quyi polosasi uchun o‘rta-geometrik chastotaga mos keluvchi tovush to‘lqini uzunligining kamida yarmi bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, kojux bilan kamera ichidagi istalgan tovush sochuvchi (diffuzor) obyekt orasidagi masofa ham shu o‘rta-geometrik chastotaga mos to‘lqin uzunligining kamida yarmi bo‘lishi kerak. 50 dan 80 Hz gacha bo‘lgan chastota diapazonidagi o‘lchovlar uchun esa bu masofa kamida 2 metr bo‘lishi shart.

Kojux o‘lchovlarning butun davomiyligi mobaynida kamera ichida bo‘lishi kerak. Tovush maydoni kamida ikkita o‘z generatoriga ega bo‘lgan baland shovqinli karnaylarning bir vaqtning o‘zida ishlashi orqali yoki bitta karnayni kamida ikkita joyga ketma-ket o‘rnatish orqali hosil qilinadi. Karnaylar orasidagi masofa 3 metrdan kam bo‘lmasligi lozim. Har qanday karnay bilan kojux orasidagi masofa imkon qadar katta, lekin 2 metrdan kam bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, har qanday karnay bilan har qanday mikrofon orasidagi masofa ham kamida 2 metr bo‘lishi shart. Agar karnay yo‘nalishsiz (ненаправленный) bo‘lsa, minimal 2 metr masofani tanlashga ruxsat etiladi. Aks holda, yoki karnay kamera burchagiga yaqin joylashtirilgan bo‘lsa, minimal masofa kattalashtirilishi lozim. Sinovlar uchun tovush tarqalish diagrammasining yo‘naluvchanligi eng kichik bo‘lgan karnaylar tanlanadi. Hosil qilinayotgan shovqin o‘lchovlar o‘tkaziladigan chastotalar


ISSN 3030-3907

diapazonida uzluksiz spektrga ega bo‘lgan barqaror shovqin bo‘lishi kerak. Agar o‘lchovlar oktavali chastota polosalarida bajarilsa, unda spektr har bir oktavali polosa ichida amalda tekis bo‘lishi lozim. Karnayning har bir joylashuvi uchun oktavali va uchdan bir oktavali chastota polosalaridagi tovush bosimi darajalari kojux atrofida bir tekis joylashtirilgan kamida oltita nuqtada o‘lchanishi lozim. O‘lchash nuqtalari GOST 31274 (8-bo‘lim) talablari bo‘yicha tanlanadi. Karnayning har bir joylashuvi uchun kojux ichidagi shartli hajmda o‘tkazilgan o‘lchovlar asosida kojux ostidagi o‘rtacha tovush bosimi darajasi aniqlanadi. Bu shartli hajm kojuxning haqiqiy ichki hajmidan kichik bo‘lishi, ammo shakli bir xil bo‘lishi kerak. Shartli hajmning chegaralovchi sirtlari kojuxning ichki yuzasidan kamida 0,2·d masofada joylashgan bo‘lishi lozim (bu yerda d — kojuxning eng kichik ichki o‘lchami). O‘lchovlarda kamida oltita nuqtadan foydalaniladi yoki katta qismidagi signalni qabul qila oladigan harakatlantiriladigan bitta mikrofon ishlatiladi. O‘lchovlar uchun qamrab olinadigan chastota diapazoni kamida 100 dan 5000 Hz gacha bo‘lgan uchdan bir oktavali polosalarni va 125 dan 4000 Hz gacha bo‘lgan oktavali polosalarni o‘z ichiga olishi kerak. 50 dan 10 000 Hz gacha bo‘lgan uchdan bir oktavali polosalar va 63 dan 8000 Hz gacha bo‘lgan oktavali polosalardan foydalanish ma’qulroq hisoblanadi.

Shovqin bosimi bo‘yicha tovush izolyatsiyasi o‘zaro ta’sir (взаимность) usuli asosida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi.

$$D_{pr} = \overline{L}_p(kamera) - \overline{L}_p(kojux\ ichida) \qquad (5)$$

Bunda, $L_{p,kamera}$— kameradagi o‘rtacha shovqin bosimi darajasi, dB; $L_{p,kojux\ ichida}$— kojux ichidagi o‘rtacha shovqin bosimi darajasi, dB.”

**XULOSA.** Ushbu tadqiqotda shovqin manbasi sifatida haqiqiy uskuna qo‘llanilmagan sharoitlarda kojuxlarning shovqin izolyatsiyasi samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladigan o‘zaro ta’sir (reciprocity) usulining nazariy asoslari va laboratoriya talablari batafsil o‘rganildi. Reverberatsion kamerada o‘tkaziladigan sinovlarning normativ talablari, karnaylarning joylashuvi, ularning yo‘naluvchanlik darajasi, mikrofonlarning pozitsiyasi va o‘lchov nuqtalarining tanlanishi kabi omillar izolyatsiya ko‘rsatkichining aniqligiga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro ta’sir usuli kojuxlarning shovqin izolyatsiya xususiyatlarini baholashda yuqori darajadagi takrorlanuvchanlik va ishonchlilikni ta’minlaydi. Ushbu usulda kameradagi va kojux ostidagi o‘rtacha tovush bosimi darajalari o‘lchanadi hamda farqi asosida izolyatsiya qiymati aniqlanadi. Sinovning asosiy afzalligi shundaki, real shovqin manbasiga ehtiyoj sezilmaydi va sun’iy ravishda yaratilgan barqaror, spektri tekis shovqin yordamida konstruksiyaning akustik samaradorligi baholanishi mumkin.

Normativ talablar, xususan GOST 31274 bo‘yicha reverberatsion kameraning geometrik shartlari, karnaylar orasidagi masofa, kameraning diffuz tovush maydonini shakllantirish talablari, shartli o‘lchov hajmi va foydalaniladigan


ISSN 3030-3907

mikrofonlar soni kabilar izolyatsiya ko‘rsatkichi aniqligining oshiradi. O‘lchovlar jarayonida oktavali va uchdan bir oktavali chastota polosalaridagi ma’lumotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi, A-korreksiyalangan izolyatsiya ko‘rsatkichlarini hisoblashda esa uchdan bir oktavali polosalar bo‘yicha aniqlik yuqoriroq ekani qayd etildi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro ta’sir usuli sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan turli akustik kojuxlarning izolyatsiya samaradorligini aniqlashda amaliy va ishonchli metod bo‘lib, real uskuna bilan sinov o‘tkazish imkoni bo‘lmagan holatlarda ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Ushbu usul yordamida turli konstruktsion yechimlar va materiallarning shovqinni kamaytirish qobiliyatini oldindan baholash mumkin, bu esa sanoatdagi mehnat muhofazasi talablarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Сулаиманов С.С., Мусаев Ш.Г. Sanitary and hygienic evaluation of working conditions and noise characteristics of equipment in the metalworking shop of the Tashkent passenger railcar construction and repair plant // Journal of Transport. – 2025. – Т. 2, № 2. – С. 189–194. – DOI: 10.56143/jot-journal.v2i2.288.

2. Modern Scientific Research on Noise Reduction in Production Processes // Eurasian Journal of Engineering and Technology. — 2025. — Vol. 45, September. — P. 1–5. — ISSN 2795-7640.

3. Безопасность жизнедеятельности. Акустический расчет: Методические указания по выполнению расчетно-графической ра боты / Национальный минерально-сырьевой университет «Горный». Сост. В.В. Смирнякова. СПб, 2012. 39 с.

4. ГОСТ 27818–88. Машины вычислительные и системы обработки данных. Допустимые уровни шума на рабочих местах и методы определения

5. Sulaymanov S., Musayev S. Toshkent yo‘lovchi vagonlarni qurish va ta’mirlash zavodi temirchilik sexi dastgohlari shovqin darajasi tavsiflari va ish o‘rinlaridagi mehnat sharoitini sanitar gigiyenik baholash //Journal of Transport. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 189-195.

6. Sulaymanov S., Musayev S. Temir yo‘l korxonalaridagi ishchi xodimalar ish o‘rinlarida ishlab chiqarishdagi shovqin bosimi darajasini bilan bog‘liq kasb kasalliklarini tahlili //Journal of Transport. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 186-188.

7. Musayev Sh.G. Shovqin tushunchasi va inson hayotiga ta’siri (tarixiy tadqiqotlar va zamonaviy yondashuvlar asosida) // *Development of Science*. — 2025. — Т. 4, № 9. — В. 23–31.

8. Musayev Sh.G. Shovqinning zararli ta’siri va uning turli mintaqalarda muammoli ko‘rsatkichlari // *Development of Science*. — 2025. — Т. 4, № 9. — В. 32–42.



ISSN 3030-3907

9. Musayev Sh.G. Modern Scientific Research on Noise Reduction in Production Processes // *Eurasian Journal of Engineering and Technology*. — 2025. — T. 45. — B. 1–5.
10. Musayev Sh.G. Analysis of the Results of Scientific Research on Noise Reduction in Machine-Building Sectors and Related Enterprises // *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*. — 2025. — T. 48. — B. 1–7.


ISSN 3030-3907

# BO‘LAJAK MUHANDISLARNI METAKOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY VA SHAXSIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Azimova Firuza Kamolovna**

***Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchi***

**Annotatsiya**. Maqolada ixtisoslik fanlarni o‘rganishda qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlardan biri metakognitiv yondashuv tahlil qilinmoqda. Ixtisoslik fanlar ta’limida bir qancha yondashuvlar muhim hisoblanadi, jumladan kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, integrativ yondashuv, klasterli yondashuv, metakognitiv yondashuv va boshqalar. So‘nggi vaqtlarda ixtisoslik fanlarni o‘rganish va o‘rgatish jarayonida metakognitiv yondashuvi ahamiyati ortib bormoqda. Metakognitiv yondashuvning asosi va uning ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonidagi ahamiyati xususida mamlakatimizda va horijda bir qancha olimlarning tadqiqot ishlarida ham o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar**: yetuk intellektual, yondashuv, metakognitiv yondashuv, metakognitiv strategiya.

**Аннотация.** В статье анализируется один из современных подходов, используемых при изучении специальных наук, метакогнитивный подход. В образовании специализированных наук важны несколько подходов, в том числе коммуникативный подход, компетентностный подход, личностно-ориентированный подход, интегративный подход, кластерный подход, метакогнитивный подход и т. д. В последнее время возрастает значение метакогнитивного подхода в процессе изучения и преподавания предметов специальности. Основы метакогнитивного подхода и его значение в процессе преподавания профильных предметов нашли отражение в исследованиях ряда ученых в нашей стране и за рубежом.

**Ключевые слова**: зрелый интеллектуал, подход, метакогнитивный подход, метакогнитивная стратегия.

**Abstract.** The article analyzes one of the contemporary approaches employed in the study of specialized disciplines—the metacognitive approach. Several methodological frameworks are important in specialized education, including the communicative approach, competency-based approach, student-centered approach, integrative approach, cluster approach, metacognitive approach, among others. Recently, the significance of the metacognitive approach in teaching and learning subject-specific content has been increasingly recognized. The foundations of the metacognitive approach and its role in teaching specialized subjects have been explored in the research of numerous scholars both domestically and internationally.



ISSN 3030-3907

**Keywords:** mature intellectual, approach, metacognitive approach, metacognitive strategy.

**Kirish**

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda, qulayliklar yaratilmoqda. Ushbu soha davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganinig guvohimiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarga berilayotgan e’tibor, pedagoglarni o‘z ustida doimiy ravishda ishlashi, ta’lim sohasiga innovatsion g‘oyalarni tadbiq etishi, kelajagimiz egalarini munosib tarbiyalash, ta’lim va tarbiya berish samaradorligini yanada oshirish, ma’nan yetuk va komil insonni tarbiyalash bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Shuning uchun ham “Pedagogika” fani dunyoviy fanlar tizimida alohida o‘rin egallaydi. Pedagogika tushunchasini A.Avloniy “bola tarbiyasining fani” deb atagan. Pedagogik kompetentlik atamaning quyidagi ma’nolari mavjud. “Kompetentlik” ingliz tilida “competence” so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini anglatadi. Kompetentlik bo‘lajak kasb egasi tomonidan egallanadigan va o‘z faoliyatida qo‘llaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish demakdir. Ya’ni yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahoratni iqtidorli namoyon eta olish tushunchasi bilan izohlanadi. Kompetentlik tizimida kasbiy kompetentlik asosiy metodologik hodisa bo‘lib, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinish demakdir [1]. Kompetensiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatidir.

Metakognitiv atamasi “meta” va “kognitiv” so‘zlaridan tashkil topganbo‘lib, “meta”, lug‘atlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib,“keyin,uchun,orqali”ma’nolarinianglatadi.“O‘zining bilim jarayonlari va ularning mahsulotlari yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalar to‘g‘risidagi mavzuni bilish”,deya ta'riflaydi Jon Flavell. Meta prefiks bo‘lib “narsaning o‘zi haqida” degan ma’noni anglatadi. Demak,metakognitiv-bu “bilish haqidagi bilish” yoki “o‘z fikrlari to‘g‘risida o‘ylash demakdir” [1]. Kognitiv so‘zi esa inglizcha (lotin) “cognize” so‘zidan olingan bo‘lib, u “bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq” yoki “cognition”–“bilish, tushunish ” kabi ma’nolarni anglatadi. O‘z o‘rnida “bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir”deya ta’riflaydi[2].

Zamonaviy pedagogikada mutaxassislarni tayyorlash uchun turli xil yondashuvlar ma’lum. Ular orasida taniqlilari fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv sanalib, yaqin orada paydo bo‘lgan yangi vaziyatli yondashuvi, axborot, konseptual, ergonomik yondashuvlar



ISSN 3030-3907

ham mavjud. Pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi XX-asrning 80- yillarida “Perspektivlar” deb nomlangan jurnalda ilk bor tilga olingan. V.D. Landsherning mazkur mavzuda “Minimal vakolat” konsepsiyasi nomli maqolasi yozib, yondashuvlar haqida ma’lumot beradi. Dastlab yondashuv haqida emas, balki faqat “kompetensiya”, “kasbiy kompetensiya” tushunchalari, shuningdek, ta’limning maqsadi va natijasi sifatida shaxsning kasbiy kompetensiyasi haqidagi fikrlar maydonga keldi. U yerda kompetensiya atamasi “mavzuni chuqur bilish” deb tushunilgan. Keyinchalik kompetensiya atamasiga keng ma’no izoh berilib, uning qo‘lami va mazmunini yoritishga harakat qilindi. Kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik yondashuvlar ma’lum toifalarga ajratiladi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi haqida olimlarning fikrlari mavjud. Pus pedagog A.M.Mityayeva ko‘p darajali ta’limni loyihalashtirishning uslubiy prinsipi sifatida kompetensiyali yondashuvni amalga oshirishda ta’lim tizimi keyingi bosqichga o‘tishi haqida ma’lumot beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta’limning maqsadi va natijalarining sifat normalari, modellashtirish usuli sifatida belgila ydi, ta’lim natijasini ajralmas shaklda bitiruvchining ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi belgilarining tizimi sifatida aks ettiradi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali foydalanadi. Muhandis mutaxassislarining kasbiy vazifalarining tarkibiy va axborot tahlili ularning kasbiy faoliyatida ilmiy va tajriba ishlarni tashkil etish, kasbiy muhim ma’lumotlarni analitik va sintetik qayta ishlash, fundamental bilimlar va majburiy fan sohalarida faoliyatning umumlashtirilgan algoritmlari asosida amaliy muhandislik muammolarini hal qilish qobiliyati bilan bog‘liq o‘zgarmas tarkibiy qismini aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib, majburiy fanlarni o‘rganish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik doirasida asosiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish, shu jumladan, talabalar tomonidan xulq-atvor standartlari, qadriyatlar va majburiy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga asoslangan amaliy va nazariy vazifalarni bajarish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribani o‘zlashtirishga qaratilgan vazifa yangilanadi. Shuning uchun zamonaviy muhandisni tayyorlashni tashkil etish kasbiy rivojlanishda va doimiy ravishda takomillashtirilishda bo‘lgan kelajakdagi mutaxassisning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Biroq ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish masalalarini yetarlicha nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqish bilan masofaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak muhandisning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Masofaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak muhandisning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi bo‘yicha


ISSN 3030-3907

ikki bosqichli tizimga o‘tish doirasida ushbu jarayonni amalga oshirishning tashkiliy-metodik asoslarini asoslash nuqtayi nazaridan muhandis kadrlar tayyorlash oliy ta’lim muassasalarida qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Texnika oliy ta’lim tizimidagi tadqiqotlar va sinov tajribasi quyidagilar o‘rtasidagi bir qator qarama-qarshiliklarni shakllantirishga imkon berdi: – bo‘lajak muhandislarning kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati, ular orasida asosiy kasbiy kompetensiyalar mutaxassisning malakasini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan va oliy ta’lim jarayonida rivojlanish muhandislarni kasbiy tayyorlashning mavjud tizimida nazariy va uslubiy yechimlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; – turli sohalarda mutaxassislar tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha katta tajriba va masofaviy ta’lim bo‘yicha muhandis tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish mexanizmining nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqilmaganligi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitida muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashish lozim. Texnika oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitida muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni quyidagi hollarda samaraliroq bo‘ladi: – kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish shartlari va vositalari asoslanadi;




**1-rasm: Oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhiti sxemasi**

– o‘quv jarayoni muhandisning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish modeli bo‘yicha, masofaviy ta’lim sharoitida majburiy fanlarni o‘rganishda talabaning o‘quv-kognitiv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘zlashtirishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi; – o‘quv jarayonining barcha subyektlari faoliyatini kompleks yondashuv va muvofiqlashtirishni ta’minlovchi masofaviy ta’lim sharoitida uni amalga oshirishning tashkiliy-metodik asoslari belgilanadi.

Metakongitiv yondashuv orqali xorijiy tillarni o‘rgatishda talabaning o‘zi ijodiy qobiliyatini faollashtirishga, diqqatini jamlashga, voqealarning hissiy tajribasi ta’siri ostida xotirasini kuchaytirishga olib keluvchi vaziyatlarni yaratishga, talabalarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash uchun haqiqiy hayotiy


ISSN 3030-3907

vaziyatlarni modellashtirishga sharoit yaratib berish talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchining ortishiga va o‘z-o‘zini baholay olish qobiliyatining shakllanishiga olib keladi.Metakognitiv yondashuv talabalarning ijtimoiy ko‘nikma va strategiyalar repertuariga ega bo‘lishi bilan birga, bunday yondashuv shaxsiy va shaxslararo muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Metakognitiv yondashuvi -talabalarga ular qanday fikrlashi va o‘rganishga qanday yondashishi kerakligini o‘rgatadi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda metakognitiv yondashuv bu metakognitiv strategiya orqali berilgan bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishning osonlashtirilishiga yordam beradigan jarayon hisoblanadi. Ixtisoslik fanlarini o‘qitish jarayonida meta-kognitiv yondashuvni aniqroq aytganda ixtisoslik fanlarni o‘rganish kontekstidagi meta-idrok o‘quvchilarni yangi ma’lumotni o‘zlashtirishda o‘zlarining kognitiv jarayonlarini faol ravishda kuzatish va tartibga solishni o‘z ichiga oladi. Maqsadlarni belgilash, o‘z-o‘zini baholash, strategiyadan foydalanish va mulohaza yuritish kabi meta-kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar talabalarga yanada strategik va samaraliroq ixtisoslik fanlarni o‘rganuvchilar bo‘lishlariga yordam berishlari mumkin. Meta-kognitiv strategiyalar talabalarga o‘zo‘rganish jarayonlarini turli kontekstlarga, vazifalarga va qiyinchiliklarga moslashtirishga imkon beradi va natijada ularning soha kesimida ko‘nikmalarini takomillashish jarayoni osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, meta-kognitiv yondashuv o‘quvchilarning ixtisoslik fanlarini o‘rganish jarayonlari haqida xabardorligi, nazorati va mulohazalarini takomillashtirish orqali ixtisoslik fanlarni o‘rgatishda asosiy rol o‘ynaydi.

Kompetentlilik har bir insonning xulq-atvorida, axloq-odobida nazariy va amaliy jihatdan namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlik o‘z faoliyatlarida belgilangan topshiriqlarni bajarish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunda kompetentlik namoyon bo‘ladigan muhitni ko‘rish talab etiladi. Mamlakatimiz ta’lim tizimini jahon standartlari darajasida ko‘tarishda munosib o‘rniga ega bilimli, qobiliyatli va iste’dodli bo‘lajak muhandislarmizda kompetentlikni rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim olish shakli, metod, vositalarini tanlay olish, ta’limning insonparvarlik, demokratik, shaffoflik, tenglik prinsiplarga amal qilish, ta’lim va tarbiya jaroyoniga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, jamiyat kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida xato va kamchiliklarga boshqalar tomonidan kamsitishlarga yo‘l qoymaslik, ijtimoiy jihatdan himoya qilish bugungi kun jamiyat oldida turgan sharafli vazifa ekanligini unitmagan holda, o‘qituvchilar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanish, yetuk intellektual salohiyatli kadr bo‘lish kabi tavsiyalarga amal qilish kerak.


ISSN 3030-3907

## ADABIYOTLAR

1. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligining muhim omili. – T.: Yoshlar tashkiloti, 2020. – 52 b.
2. Medetova R.M., Anarboyev A.A. Hamkorlik pedagogikasi asosida bo‘lajak zahiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish // Ta’lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. 2023-yil 13-noyabr. – T.: O‘zPFITI, 2023. – B. 284-287.
3. Alimov.B. “Zamonaviy media muhitda mamlakat imijiningkognitiv aspektlari”. -.: 2018
4. J.O‘Malley,&A.Chamot,(1990).Learningstrategiesinsecondlanguageacquisition .NewYork,NY:Cambridge UniversityPress.35.21-46.
5. Khojjiyev, M., & Karshiyev, Z. (2024). METHODOLOGY OF INSPECTION OF GAS METERS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(11), 20-23.
6. Maxmudovich, X. M., Kuchkorovich, J. A., & Xo‘Jjiyev, M. (2021). Technology of using E-learning modeling programs in teaching special subjects in professional education. Psychology and Education Journal, 58(1), 5403-5411.
7. Abdurasulovich, K. J., Abdurasulovich, K. O., Yangiboevich, K. M., Anvarovich, A. A., & Xolmurodovich, G. A. (2020). Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education. Journal of Critical Reviews, 7(14), 89-93.
8. TAMOYILLARI, B. A. O. D. MASOFAVIY TA’LIM ORQALI UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARINI KOGNITIV–VIZUAL YONDASHISH ORQALI, TALABALAR.
9. Nikolayevich, T. M., & Yangiboevich, K. M. ANALYSIS OF DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY OF PRODUCTION OF SECONDARY PRODUCTS FROM PYROLYSIS DISTILLATE. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 246.


ISSN 3030-3907

# INNOVATIVE DESIGN AND DEM ANALYSIS OF ENERGY-EFFICIENT VIBRATING SCREENS FOR INERT MATERIAL PROCESSING

**Muzafarov Ezozjon**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
*E-mail: mirjonovfayzulla@gmail.com*
**Toirov Murtoza**
*Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan*
*E-mail: murtoza.toirov@mail.ru*

**Abstract:** This study focuses on the development and analysis of energy-efficient and environmentally friendly vibrating screen technologies used for processing inert and granular materials. A spring-based screen design powered by compressed air is proposed, offering advantages such as low noise levels, elimination of electrical energy consumption, and convenient application in road construction, maintenance operations, and coal screening. In addition, the performance of a “banana-shaped” vibrating screen with multiple inclination angles was investigated. Using the Discrete Element Method (DEM), the influence of geometric and operational parameters on screening efficiency was modeled, providing practical recommendations for improving screen design and optimizing resource-efficient industrial processes.

**Key words:** Pneumatic vibrating screen, Banana-shaped screen, Deck inclination angle, Screening efficiency, Discrete Element Method (DEM), Energy-efficient, Inert material processing.

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot inert va granulali materiallarni qayta ishlashda qo‘llaniladigan energiya tejamkor va ekologik toza vibratsiyali elak texnologiyalarini ishlab chiqish va tahlil qilishga qaratilgan. Siqilgan havo yordamida ishlaydigan, prujinalarga asoslangan elak konstruksiyasi taklif etildi. U past shovqin darajasi, elektr energiyasidan foydalanmaslik va yo‘l qurilishi, ta’mirlash ishlari hamda ko‘mirni saralashda qulaylik kabi afzalliklarga ega. Shuningdek, bir nechta qiyalik burchaklariga ega bo‘lgan “banan” shaklidagi vibratsion elakning ish samaradorligi ham o‘rganildi. Diskret elementlar usuli (DEM) yordamida geometrik va ekspluatatsion parametrlarning saralash samaradorligiga ta’siri modellashtirilib, elak konstruksiyasini takomillashtirish va resurs tejamkor sanoat jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar**: Pnevmatik vibratsion elak, Banan shaklidagi elak, Elak qavati qiyalik burchagi, Saralash samaradorligi, Diskret elementlar usuli (DEM), Energiya tejamkor, Inert materiallarni qayta ishlash.

**Аннотация:** В данном исследовании рассматривается разработка и анализ энергосберегающих и экологически безопасных технологий вибрационных грохотов, применяемых для переработки инертных и гранулированных материалов. Предлагается конструкция грохота на пружинах, работающего на сжатом воздухе, обладающая такими преимуществами, как низкий уровень шума, отсутствие потребления электрической энергии и удобство применения в дорожном строительстве, при выполнении ремонтных работ и сортировке угля. Кроме того, была изучена эффективность работы вибрационного грохота «банановой» формы с несколькими углами наклона. С помощью метода дискретных элементов (DEM) смоделировано влияние геометрических и эксплуатационных параметров на эффективность сортировки, что позволило дать практические рекомендации по совершенствованию конструкции грохота и оптимизации ресурсосберегающих промышленных процессов.

**Ключевые слова:** Пневматический вибрационный грохот, Грохот банановой формы, Угол наклона деки, Эффективность сортировки, Метод дискретных элементов (DEM), Энергоэффективный, Переработка инертных материалов.

## Introduction

Efficient screening of inert materials is a crucial technological stage in many industrial sectors, including mining, road construction, building materials production, and coal processing. The quality of the screening process directly affects not only production efficiency but also energy consumption, equipment service life, and the quality of the final product. Therefore, modern industrial enterprises increasingly demand energy-efficient, environmentally friendly, and high-performance screening equipment. Although traditional electric-motor-driven vibrating screens have been widely used for many years, they still suffer from high operating costs, elevated noise levels, and significant energy consumption. Moreover, in conditions where power supply is limited or where mobile operation is required, such equipment becomes less practical. From this perspective, pneumatic vibrating screens powered by compressed air are emerging as a modern technological solution. They do not require electrical energy, offer low maintenance costs, and are considered environmentally friendly. Screening efficiency depends not only on the vibration source but also on the screen geometry, particularly the inclination angles of multi-segment decks. In recent years, “banana-type” vibrating screens have become widely used in high-capacity processing lines because their variable inclination angles ensure rapid material stratification and improved passage through screen apertures. However, determining the optimal combination of inclination angles through experimental methods is both complex and costly. For this reason, the Discrete Element Method



ISSN 3030-3907

(DEM) provides an effective means of accurately modeling particle dynamics on the screen, including bounce amplitude, stratification, and passage through apertures. By evaluating the performance of banana-type screens with different geometric configurations using DEM, it becomes possible to identify optimal design parameters and scientifically improve the screening process. The purpose of this study is to develop a pneumatic vibrating screen for inert material classification, analyze the performance of a multi-segment banana-shaped screen with various inclination angles using DEM, and identify the optimal parameters for the screening process. The results have practical significance for implementing energy-efficient, environmentally friendly, and highly efficient screening technologies in industrial operations. Modern industries—such as metallurgy, mining, road construction, and building materials production—require equipment that is energy-efficient, reliable, and cost-effective in operation. Pneumatic vibrating screens powered by compressed air represent an efficient and economically advantageous technology for screening inert materials, especially in locations with limited or unavailable electrical infrastructure. Multi-inclination banana-type vibrating screens are widely used in high-capacity screening processes, where their effectiveness depends mainly on deck inclination, vibration parameters, and the characteristics of the material flow. [1]The Discrete Element Method (DEM) allows for accurate modeling of particle motion, separation behavior, and aperture passage processes, enabling optimization of screen design. By combining compressed-air-driven systems with optimized multi-segment screen geometries, it is possible to enhance screening efficiency, reduce energy consumption, and minimize environmental impact.

**Materials and Methods**

Pneumatic vibrating screens represent an efficient, energy-saving, and environmentally friendly solution for industrial processing operations. In coal mining, they enable effective separation of fine coal particles, directing them to conveyor systems for subsequent briquetting. These screens can operate in both stationary and mobile configurations, offering high adaptability to different mining sites. When necessary, pneumatic screens can be deployed at any location and powered by mobile compressors such as the PR-10 or VVP 6/7. Their operating principle is straightforward: vibration is generated by the rotation of a rotor under compressed air pressure of 0.5–0.7 MPa. This ensures long-term operation, low maintenance requirements, and consistent performance.

**Results and Discussion**

The performance of the screen was analyzed using the Discrete Element Method (DEM). The study examined the following parameters:

- Screen surface area: 1200 × 640 mm



ISSN 3030-3907

- Aperture size: 10 mm
- Particle diameter: 2–15 mm
- Material composition:
  - 80% — readily passable material (d/a = 0.2–0.7)
  - 15% — difficult-to-pass material (d/a = 0.7–1.0)
  - 5% — non-passable material (d/a = 1.0–1.5)

Four geometric configurations of the multi-segment “banana” screen were tested. Each screen was divided into five equal segments, starting with a base inclination of 10°, with subsequent segments increasing by Δα = 3°, 4°, 5°, and 6°. For the banana-type screen, the obtained throwing index (Kv > 2.08) confirmed continuous particle bouncing, which is essential for effective separation. [2]While increasing the deck inclination improved throughput capacity, it also reduced particle stratification, indicating a trade-off between material flow rate and separation quality.





**Fig. 1. Screen model with variable deck inclination angles** [3]

The experiments showed the following trends:

- At **Δα = 3–4°**, the screening efficiency was initially high and stabilized after approximately 2 seconds.
- At **Δα = 6°**, excessive particle velocity prevented proper stratification, resulting in the lowest efficiency.
- At **Δα = 5°**, performance improved slightly but did not reach optimal levels.

The best results were observed in the **Δα = 3–4°** range, where particle stratification, passage through the screen apertures, and overall screening efficiency were maximized.

**Conclusion**


ISSN 3030-3907

Pneumatic vibrating screens reduce energy consumption, lower operational costs, and minimize environmental impact compared to conventional electric motor-driven systems. Their mobile, adaptable, and low-maintenance design makes them suitable for a wide range of industrial applications. DEM-based studies indicate that the screening efficiency of banana-shaped screens largely depends on the gradation of deck inclination angles. Optimal performance was observed at inclination increments of 3–4°, while excessive angles significantly reduced efficiency. Overall, integrating pneumatic vibrating systems with optimized multi-segment screen geometries offers a promising solution for developing highly efficient, environmentally friendly, and resource-saving industrial technologies.

## REFERENCES

1. Guo Nian Qin and Kuang Yong Jiang. Research & development of, screen home and abroad. *Nonferrous Metals of the World,* China 2009, 5, 26-27

2. Zhao Yue Min and Liu Chu Sheng. Advances in coal dry screening theory and equipment. *China Academic Journal,* 2008, 2, 15-18.

3. N. V. Xo, “Study on the effect of deck inclination angle on the screening efficiency of banana-shaped vibrating screens applying discrete element method (DEM),” *IOSR Journal of Engineering (IOSRJEN)*, vol. 10, no. 4, pp. 58–62, Apr. 2020.



ISSN 3030-3907

# CHANGLANISHNING QUYOSH PANELLARI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

**Fozilova Mohira Soyibjon qizi**
*Andijon davlat texnika instituti stajyor-o‘qituvchisi,*
*Andijon, O‘zbekiston.*
*E-mail: Fmohira0@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada quyosh fotoelektrik modullarining samaradorligiga changlanishning (soiling) ta’siri o‘rganilgan. Quruq iqlim sharoitiga ega bo‘lgan hududlarda, xususan O‘zbekistonning ko‘plab viloyatlarida chang miqdorining yuqoriligi PV tizimlarining energiya ishlab chiqarish jarayonida sezilarli yo‘qotishlarga olib kelishi aniqlangan. Tadqiqot davomida turli chang turlarining optik xususiyatlari, ularning yutilish koeffitsienti va modul sirtida to‘planish darajasi bo‘yicha ta’siri tahlil qilindi. O‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki, changning 1–2 % sirtni qoplash darajasi ham quvvatning 5–10 % kamayishiga sabab bo‘ladi, yuqori changlanish esa yo‘qotishlarni 30–40 % gacha oshirishi mumkin. Shuningdek, PV modullarni tozalashning optimal davriyligi va samarali texnologik usullari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida quyosh elektr stansiyalari uchun ekspluatatsiya samaradorligini oshirish hamda texnik xizmat ko‘rsatish strategiyalarini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar.** Quyosh fotoelektrik tizimlari, changlanish, soiling, samaradorlik yo‘qotishlari, optik yutilish, PV modullar, chang tarkibi, quyosh radiatsiyasi, tozalash davriyligi, energiya ishlab chiqarish.

**Аннотация.** В данной статье исследуется влияние загрязнения на эффективность солнечных фотоэлектрических модулей. В регионах с засушливым климатом, в частности, во многих регионах Узбекистана, установлено, что высокий уровень запыленности приводит к значительным потерям в процессе выработки энергии фотоэлектрическими системами. В ходе исследования был проанализирован эффект различных типов пыли на оптические свойства, их коэффициент поглощения и степень накопления на поверхности модуля. Результаты измерений показали, что даже 1–2% поверхностного покрытия пылью вызывает снижение мощности на 5–10%, в то время как сильное загрязнение может увеличить потери до 30–40%. Также были разработаны рекомендации по оптимальной частоте и эффективным технологическим методам очистки фотоэлектрических модулей. Результаты исследования имеют практическое значение для повышения эффективности работы солнечных электростанций в условиях Узбекистана и совершенствования стратегий технического обслуживания.

**Ключевые слова.** Солнечные фотоэлектрические системы, пыль, загрязнение, потери эффективности, оптическое поглощение,



ISSN 3030-3907

фотоэлектрические модули, состав пыли, солнечное излучение, частота очистки, выработка энергии.

**Annotation**. This article investigates the effect of dust accumulation (soiling) on the efficiency of solar photovoltaic (PV) modules. In dry climatic conditions, particularly in many regions of Uzbekistan, high dust concentration has been found to cause significant energy output losses in PV systems. The study analyzes the impact of various dust types based on their optical properties, absorption coefficients, and the degree of surface coverage. Measurement results show that even 1–2% surface coverage by dust can reduce output power by 5–10%, while higher levels of soiling may increase losses up to 30–40%. In addition, recommendations were developed regarding the optimal cleaning frequency and effective technological cleaning methods for PV modules. The findings have practical significance for improving the operational efficiency of solar power plants in Uzbekistan and optimizing maintenance strategies.

**Keywords.** Solar photovoltaic systems, dust deposition, soiling, efficiency losses, optical absorption, PV modules, dust composition, solar radiation, cleaning frequency, energy production.

**Kirish.**

So‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan quyosh energiyasidan foydalanish hajmi dunyo miqyosida jadal sur’atlarda ortib bormoqda. Quyosh fotoelektrik tizimlari (PV) ekologik toza, barqaror va uzoq muddatli energiya manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Biroq ushbu tizimlarning real ekspluatatsiya sharoitlarida samaradorligi bir qator tashqi omillar ta’sirida pasayadi. Shulardan eng muhimlaridan biri — changlanish (soiling) jarayonidir. Chang zarrachalarining modul sirtida to‘planishi quyosh nurlanishining optik yutilishini kamaytiradi, yorug‘likning modulga kirish burchagini buzadi va natijada fotoelementlar ishlab chiqaradigan quvvatni sezilarli kamaytiradi.

Changlanishning ta’siri ayniqsa quruq iqlimga ega hududlarda, jumladan Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sharoitida dolzarb hisoblanadi. Hududlarda tuproq tarkibi, shamol tezligi, namlik, yog‘ingarchilik chastotasi va antropogen chang manbalari PV modullarni chang bilan qoplash darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqatgina 1–2 % sirt changlanishi ham modulning umumiy quvvatini 5–10 % gacha kamaytirishi mumkin, kuchli chang to‘planishi esa yo‘qotishlarni 30–40 % gacha yetkazadi. Shu boisdan changlanishning fizik mexanizmlarini chuqur o‘rganish va uni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish PV tizimlar samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Ushbu tadqiqotda quyosh panellari sirtida chang to‘planishining fotoelektrik samaradorlikka ta’siri o‘rganildi, turli chang turlari uchun yo‘qotishlar tahlili amalga oshirildi hamda O‘zbekiston sharoitida PV modullarni tozalashning optimal davriyligi uchun tavsiyalar ishlab chiqildi [1-3].



ISSN 3030-3907

**Adabiyotlar tahlili.** Quyosh fotoelektrik (PV) modullarining samaradorligiga changlanishning ta’siri bo‘yicha so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro manbalarda changning optik xususiyatlari, uning modul sirtida to‘planish mexanizmlari va energiya yo‘qotish miqdorlari keng tahlil qilingan.

Dunyo miqyosidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PV sirtida 1 g/m² chang to‘planishi quvvat ishlab chiqarishni 2–5 % gacha kamaytiradi. Quruq va chang bo‘lgan hududlarda yo‘qotishlar yanada yuqori bo‘lib, Misr, Saudiya Arabistoni va Hindiston kabi mamlakatlarda yil davomida changlanish natijasida 20–45 % gacha samaradorlik pasayishi kuzatilgan. Quyosh panellari sirtiga tushadigan changning fizik va kimyoviy xususiyatlari ham turlicha bo‘lib, aerozollar tarkibidagi qum, gil, tsement zarrachalari, avtomobil chiqindilari va organik moddalarning optik yutilishi yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Adabiyotlarda chang zarrachalarining yorug‘likni tarqatish va yutish koeffitsienti ularning shakli, o‘lchami, sirt qo‘polligi va minerallashuv darajasi bilan bog‘liq ekani qayd etilgan. Masalan, silikatli zarrachalar yorug‘likning 10–20 %, metall oksidli chang esa 20–40 % gacha yutishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, shamol tezligi, yog‘ingarchilik chastotasi, geolokatsiya, modul o‘rnatish burchagi va tozalash davriyligi kabi omillar ham changlanish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida chang konsentratsiyasi yuqori bo‘lgani sababli PV modullarning yillik samaradorlik yo‘qotishlari 12–25 % oralig‘ida bo‘lishi mumkin. Mazkur hududlarda havo tarkibidagi mayda aerozollar, asosan kvarts, karbonat, sulfat va organik zarralardan iborat bo‘lib, ularning optik yutilish koeffitsienti yuqori hisoblanadi.

Adabiyot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, changlanish muammosi Markaziy Osiyo sharoitida hal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy texnik to‘siqlardan biridir va uni tizimli tadqiq qilish zarur [4-5].

**Metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda quyosh panellari samaradorligiga changlanish ta’sirini baholash uchun eksperimental va kuzatuv metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘ldi:

O‘lchov ob’ektini tanlash:

Tadqiqot Andijon viloyatidagi quyosh fotoelektrik modullar o‘rnatilgan tajriba stansiyasida amalga oshirildi. Modul sirtining turli darajadagi changlanishi natijalari taqqoslash uchun bir nechta identik PV panellar ishlatildi. Panellarning o‘rnatish burchagi, yo‘nalishi va texnik xususiyatlari bir xil bo‘ldi.

Chang to‘planishini kuzatish:


ISSN 3030-3907

Modul sirtida chang to‘planish darajasi vizual inspeksiya va fotometrik usullar yordamida aniqlandi. Turli turdagi changlar (qum, gil, organik modda) modul yuzasida taqsimlanishi va zichligi bilan kuzatildi.

Quyosh radiatsiyasi va quvvat o‘lchovlari:

PV modullar orqali ishlab chiqarilgan elektr quvvat va modul yuzasiga tushadigan quyosh radiatsiyasi darajasi o‘lchov asboblari yordamida qayd etildi. O‘lchovlar kun davomida turli vaqtlarda, shuningdek, chang to‘planish darajasi bilan bog‘liq holda takrorlandi.

**Ma’lumotlarni tahlil qilish:**

Turli darajadagi changlanishning modul quvvatiga ta’siri baholandi. Olingan natijalar modul yuzasining qoplangan chang foizi va ishlab chiqarilgan elektr energiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

**Optimal tozalash davriyligini aniqlash:**

Tadqiqot davomida PV modullarni tozalashning turli davriyligi (haftasiga bir marta, ikki haftada bir marta, oyda bir marta) samaradorlikka ta’siri sinovdan o‘tkazildi. Natijalar asosida O‘zbekiston sharoitida changlanishdan kelib chiqadigan yo‘qotishlarni minimal darajaga tushirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

**1-Jadval**

**Changlanish darajasi va PV modullar samaradorligidagi yo‘qotishlar jadvali:**

| Chang qoplamasi (sirt foizi) | O‘rtacha quvvat yo‘qotishi (%) | Maksimal quvvat yo‘qotishi (%) |
|---|---|---|
| 0–1 % | 2–3 | 5 |
| 1–2 % | 5–10 | 12 |
| 2–5 % | 10–20 | 25 |
| 5–10 % | 20–30 | 35–40 |

**Umumiy yondashuv:**

Metodika eksperimental kuzatuv, vizual baholash va elektr quvvat o‘lchovlariga asoslangan bo‘lib, real sharoitda PV modullar samaradorligiga changning ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Shu yondashuv turli chang turlari va sirt qoplama darajalarining samaradorlikka sezilarli ta’sirini ko‘rsatib, tozalash strategiyasini ishlab chiqishga imkon yaratadi [6-7].

**Natija:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, quyosh panellari samaradorligiga changlanish sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Eksperimental o‘lchovlar davomida turli chang darajalarida PV modullar orqali ishlab chiqarilgan quvvatdagi kamayishlar aniqlanib, ularning sirt yuzasi bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Changlanishning kichik darajalari ham modul samaradorligiga ta’sir qiladi. Masalan, modul yuzasining oz miqdorda chang bilan qoplanishi o‘rtacha quvvatni



ISSN 3030-3907

sezilarli kamaytiradi. Changning ko‘payishi esa ishlab chiqariladigan elektr energiya miqdorida yanada katta yo‘qotishlarga olib keladi.

Turli turdagi changlarning modulga ta’siri ham farq qiladi. Silikatli chang zarrachalari yorug‘likni qisman yutsa, metall oksidli changlarning yutilish koeffitsienti yuqori bo‘lib, samaradorlik yo‘qotishlarini oshiradi. Shu sababli, ayniqsa qum va sanoat chiqindilari ko‘p bo‘lgan hududlarda yo‘qotishlar sezilarli bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, PV modullarni muntazam tozalash samaradorlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Haftasiga bir marta tozalash PV tizimlarining quvvat yo‘qotishlarini minimal darajada saqlashga yordam beradi, oyda bir marta tozalash esa samaradorlikni sezilarli kamaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida, xususan chang ko‘p bo‘lgan hududlarda PV tizimlarni muntazam tozalash va changlanishga chidamli qoplamalar yoki avtomatik tozalash tizimlarini qo‘llash ishlab chiqariladigan energiya miqdorini oshirishga yordam beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, changlanish PV modullar samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi va texnik xizmat ko‘rsatish strategiyalarini takomillashtirish zarur.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, changlanish PV modullar samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Ushbu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. Masalan, Misr, Saudiya Arabistoni va Hindiston kabi quruq va chang bo‘lgan hududlarda PV modullar sirtida chang to‘planishi yil davomida samaradorlikni 20–45 % ga kamaytirishi qayd etilgan. O‘zbekiston sharoitida ham o‘tkazilgan eksperimental o‘lchovlar shuni ko‘rsatadiki, changlanish darajasi faqat bir necha foiz bo‘lsa ham quvvat yo‘qotishlari sezilarli bo‘lib, kuchli changlanish esa yo‘qotishlarni 30–40 % gacha oshiradi.

Chang turining fizik va kimyoviy xususiyatlari PV modullarga ta’sirni aniqlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Silikatli changlar yorug‘likning bir qismini yutsa, metall oksid va organik zarrachalar yutilish koeffitsienti yuqori bo‘lib, modul samaradorligini yanada kamaytiradi. Shu sababli, chang tarkibi va o‘lchami hududga xos tavsiyalar ishlab chiqishda hisobga olinishi lozim.

Eksperiment natijalari tozalash davriyligi va samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham aniq ko‘rsatdi. Haftasiga bir marta tozalash PV tizimlarining quvvat yo‘qotishlarini minimal darajada saqlashga yordam beradi, oyda bir marta tozalash esa samaradorlikni sezilarli kamaytiradi. Bu esa texnik xizmat ko‘rsatish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, avtomatik tozalash tizimlari yoki changlanishga chidamli qoplamalar qo‘llash PV tizimlarni uzoq muddat samarali ishlashini ta’minlashga yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida chang konsentratsiyasi yuqori bo‘lgani sababli, PV tizimlarni muntazam tozalash va texnik xizmat ko‘rsatish rejimini ishlab chiqish energetik


ISSN 3030-3907

samaradorlikni oshirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, changlanish muammosi PV tizimlarni uzoq muddatli ekspluatatsiya qilishda hal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy texnik to‘siqlardan biridir.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot PV modullar sirtida chang to‘planishining samaradorlikka ta’sirini aniqlashga qaratildi. Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, changlanish hatto sirtning oz miqdorda qoplanishi bilan ham modul quvvatini sezilarli darajada kamaytiradi, kuchli chang to‘planishi esa yo‘qotishlarni 30–40 % gacha oshiradi. Turli turdagi changlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari PV tizimlar samaradorligiga turlicha ta’sir qiladi, shu sababli hududga xos tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir.

Tadqiqot davomida PV modullarni muntazam tozalashning samaradorlikni saqlashdagi ahamiyati aniqlanib, haftasiga bir marta tozalash eng optimal strategiya sifatida tavsiya etildi. Shu bilan birga, changlanishga chidamli qoplamalar va avtomatik tozalash tizimlarini qo‘llash PV tizimlarni uzoq muddat samarali ishlashini ta’minlashga yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida, xususan quruq va changli hududlarda PV tizimlarni ekspluatatsiya qilishda muntazam texnik xizmat ko‘rsatish va tozalash strategiyasini joriy etish energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, changlanish muammosi PV tizimlar samaradorligini ta’minlashda hal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy omil hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. P. A. Østergaard, N. Duic, Y. Noorollahi, and S. A. Kalogirou, “Recent advances in renewable energy technology for the energy transition,” Renewable Energy, vol. 179, pp. 877–884, Dec. 2021.

2. J. W. Nielsen and E. F. Dearborn, “THE GROWTH OF LARGE SINGLE CRYSTALS OF ZINC OXIDE1,” Journal of Physical Chemistry, vol. 64, no. 11, pp. 1762–1763, 2002, doi: 10.1021/J100840A503.

3. N. Stem, C. A. S. Ramos, and M. Cid, “Open-circuit voltages: Theoretical and experimental optimizations of rear passivated silicon solar cells using Fz and Cz wafers,” Solid-State Electronics, vol. 54, no. 3, pp. 221–225, Mar. 2010, doi: 10.1016/J.SSE.2009.09.002.

4. Y. Gassenbauer et al., “Rear-surface passivation technology for crystalline silicon solar cells: A versatile process for mass production,” IEEE Journal of Photovoltaics, vol. 3, no. 1, pp. 125–130, 2013, doi: 10.1109/JPHOTOV.2012.2211338.

5. D. Z. Dimitrov and C. H. Du, “Crystalline silicon solar cells with micro/nano texture,” Applied Surface Science, vol. 266, pp. 1–4, Feb. 2013, doi: 10.1016/J.APSUSC.2012.10.081.



ISSN 3030-3907

6. C. Haase and H. Stiebig, “Thin-film silicon solar cells with efficient periodic light trapping texture,” Applied Physics Letters, vol. 91, no. 6, p. 061116, Aug. 2007, doi: 10.1063/1.2768882.
7. T. E. Scheul, E. Khorani, T. Rahman, M. D. B. Charlton, and S. A. Boden, “Wavelength and angle resolved reflectance measurements of pyramidal textures for crystalline silicon photovoltaics,” Progress in Photovoltaics: Research and Applications, vol. 28, no. 12, pp. 1248–1257, Dec. 2020, doi: 10.1002/PIP.3319.


ISSN 3030-3907

# INGIBIRLASH XUSUSIYATINI BERUVCHI TARKIBIDA BOR VA AZOT SAQLAGAN ORGANIK MODDALAR SINTEZI.

**Qo‘ldoshev Alisher Komil o‘g‘li**
*Toshkent kimyo-texnologiyalar ilmiy tadqiqot institute tayanch doktorant*
*E-mail:alisherkuldashev999@gmail.com*
**Nurqulov Fayzulla Nurmuminovich**
*Toshkent kimyo-texnologiyalar ilmiy tadqiqot instituti t.f.d. prof.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada neft-gaz sanoatida keng uchraydigan korroziya jarayonlarini kamaytirish maqsadida **tarkibida bor saqlagan yangi organik ingibitor** sintezi, uning tuzilishi hamda korroziyaga qarshi samaradorligi tadqiq qilingan. Spirtlar va borat kislotasi o‘rtasidagi reaksiyada **borat efirlarining hosil bo‘lish mexanizmi**, optimal stoxiometrik nisbatlar hamda reaksiya sharoitlari aniqlangan. Olingan mahsulotning tuzilishi **IQ-spektroskopiya** yordamida o‘rganilib, B–O–C, C–O–B, B–O kabi funksional guruhlarning shakllanishi tasdiqlangan. Metall namunalar ustida o‘tkazilgan korroziya sinovlari natijasida ingibitorning 0,25 % dan 1,0 % gacha konsentratsiyalarda qo‘llanganda **74,34–91,83 % gacha himoya darajasi** namoyon qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari yangi sintez qilingan bor saqlagan organik ingibitorning neft-gaz sanoati uchun samarali, yuqori korroziyaga qarshi faollikka ega modda sifatida qo‘llanish imkoniyatini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** borat kislotasi, spirt, **IQ-spektroskopiya, ingibitor, korroziya,** korroziya tezligi, Himoya darajasi.

**Аннотация:** В данной статье исследованы синтез нового органического ингибитора, содержащего бор, его структура, а также эффективность против коррозии с целью снижения коррозионных процессов, широко распространённых в нефтегазовой промышленности. Установлены механизм образования боратных эфиров в реакции между спиртами и борной кислотой, оптимальные стехиометрические соотношения и условия проведения реакции. Структура полученного продукта изучена методом ИК-спектроскопии, при этом подтверждено формирование таких функциональных групп, как B–O–C, C–O–B и B–O. Коррозионные испытания, проведённые на металлических образцах, показали, что при использовании ингибитора в концентрациях от 0,25 % до 1,0 % достигается степень защиты в пределах 74,34–91,83 %. Полученные данные свидетельствуют о том, что вновь синтезированный органический ингибитор, содержащий бор, обладает высокой антикоррозионной активностью и может быть эффективно применён в нефтегазовой промышленности


ISSN 3030-3907

**Ключевые слова:** борная кислота, спирт, ИК-спектроскопия, ингибитор, коррозия, скорость коррозии, степень защиты

**Abstract:** This article investigates the synthesis of a new boron-containing organic inhibitor, its structure, and its anti-corrosion efficiency aimed at reducing corrosion processes widely encountered in the oil and gas industry. The mechanism of borate ester formation in the reaction between alcohols and boric acid, optimal stoichiometric ratios, and reaction conditions were determined. The structure of the obtained product was studied using IR spectroscopy, and the formation of functional groups such as B–O–C, C–O–B, and B–O was confirmed. Corrosion tests conducted on metal samples revealed that when the inhibitor is applied at concentrations ranging from 0.25% to 1.0%, a protection efficiency of 74.34–91.83% is achieved. The results demonstrate that the newly synthesized boron-containing organic inhibitor possesses high anti-corrosion activity and has strong potential for effective application in the oil and gas industry


**Keywords:** boric acid, alcohol, IR spectroscopy, inhibitor, corrosion, corrosion rate, protection efficiency

**Kirish.**

Neft-gaz korxonalarida uchraydigan ko‘plab baxtsiz hodisalar va iqtisodiy zararlarning asosiy sabablaridan biri bu metallarning korroziyaga uchrashi o‘rganilgan. Neft va gaz sanoatidagi qurulmalarninglarning ishdan chiqishi sabablari 1993 yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalari o‘rganilganda, Shimoliy dengizdagi neft va gaz qurulmalarini ta’mirlash uchun ishlab chiqarish platformalariga sarflangan barcha xarajatlarning 60% korroziya natijasida sodir bo‘lgan. Neft va gaz bo‘yicha dunyodagi yetakchi kompaniyalarda o‘tkazilgan 2003 yilgi so‘rovda korroziyaga qarshi yillik xarajat 900 million dollarni deb e’lon qilgan edi. 2006 yilda amalga oshirilgan yana bir so‘rov shuni ko‘rsatdiki, Qo‘shma Shtatlar neft va gaz sanoatidagi korroziyadan yillik qiymati 1,372 milliard dollargacha zarar ko‘rgan. Neft va gaz sanoatida korroziyaning global narxi energiyaga juda yuqori talab sababli yaqin kelajakda yana ham ortib boradi [1].



ISSN 3030-3907




**1.1-rasm. Neft va gaz uskunalarining ta'mirlash va almashtirish sabablari.**

Ushbu tadqiqot natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, neft va gaz qurulmalarini almashtirish va ta'mirlashning asosiy sabablarining 60 % miqdori korroziya oqibatida yuza kelmoqda. 25 % vaqt o'tishi bilan, 5 % ishqalanish va sirpanish bilan, 10 % miqdori boshqa omillar ta'sirida yuzaga kelmoqda [2].

Ushbu muammolarni inobatga olib ilmiy va sanoat tajribalar asosida, neft va gaz quduqlari quvurlarining xizmat muddati davomida quduqning korroziyaga qarshi jarayonlarini ko'rib chiqish uchun kompleks yondashuvda muayyan kamchiliklar borligi aniqlashtirildi. Bundan tashqari, zamonaviy va keng miqyosli yondashuv bilan po'latdan tayyorlangan korpus va quvurlarni turli xil muhitlarda, jumladan, yakunlovchi suyuqlik, suyuq uglevodorodlar ya'ni, benzin, kondensat, industrial yog'da, shuningdek, ishlab chiqarish oqimining kimyoviy muhitga ta'sirchanligi hisobga olindi. Har bir qismda korroziya ingibitorlarining yutuqlari va ularning ingibirlash mexanizmi ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ularni in'eksiya qilish, qo'llash va sinovlar operatsion va sanoat jihatdan olib borildi hamda muhokama qilindi. Ushbu tadqiqotlar, shuningdek, tadqiqot natijalari va korroziya ingibitorlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ishning asosiy maqsadlarini yaxshiroq tushunish uchun ushbu tadqiqotning dastlabki qismlarida korroziya mexanizmlari va turli yumshatish metodlari qisqacha tahlil qilindi.[3].

Neft-gaz sanoatida ishlatiladigan korroziya ingibitorlari orasida organik plyonka hosil qiluvchi sirt-faol moddalar, xususan katyonik turdagi reagentlar, boshqa sinflarga nisbatan ancha rivojlangan va amaliyotda keng qo'llanmoqda. Plyonka hosil qiluvchi aminlar tarkibida azot yoki ammoniy funksional guruhlariga ulangan gidrofil alkil zanjirlari mavjud. Tarkibidagi azotga ega funksional guruhlar alkil zanjirlaridan farqli ravishda gidrofil xususiyatga ega bo'lib, musbat zaryadlanishi sababli manfiy zaryadlangan metall yuzalariga adsorbsiyalanishi mumkin. Gidrofil qismlar neft molekulalarida eruvchanlikni ta'minlaydi va


ISSN 3030-3907

himoya qatlamining hosil bo‘lishiga olib keladi. Alkil guruhi korroziya jarayonini yumshatish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, uzunroq alkil dumi ingibitorning yuqoriroq samaradorligiga olib keladi. Yuqori haroratlarda ingibitorlardan foydalanish ko‘pincha samarasiz bo‘ladi yoki ular parchalanib ketishi mumkin, bu esa aksincha korroziya tezligining oshishiga olib keladi. Oxirgi besh yil davomida neftni birlamchi qayta ishlash va neft qazib olish sharoitida po‘lat korroziyasidan himoya qilish uchun qo‘llaniladigan, uglevodorod muhitida eruvchan yuqoridagi moddalarning birikmalari ro‘yxati kengaydi. Shuningdek, metallarni atmosfera korroziyasidan himoya qilishga mo‘ljallangan konservativ materiallar assortimenti ham sezilarli darajada kengaytirildi [4].


**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** TKTITI laboratoriya sharoitida spirtlar va borat kislotasi asosida korroziyaga qarshi xususiyatga ega bo‘lgan yangi organik ingibitor birikmasi sintez qilindi. Sintez jarayonida optimal stoxiometrik nisbatlar, reaksiyaning harorat va vaqt omillari, shuningdek katalitik sharoitlar o‘rganildi. Olingan mahsulotning tarkibida bor elementining mavjudligi uning funksional faolligini oshiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lib, bor kislotasi bilan polifunksional spirtlar o‘rtasida borat efirlari shakllanishi kuzatildi.

Reaksiya davomida ajralib chiqqan suv bug‘lari qaytaruvchi sovitgich orqali sovitilib, Din-Stark apparatida yig‘ildi. Suvni uzluksiz olib tashlash orqali reaksiya muvozanati mahsulot tomon siljidi va efirlash samaradorligi oshdi. Sintez jarayonida bor, kislorod va uglerod atomlarining o‘zaro kimyoviy bog‘lanishi natijasida murakkab fazoviy tuzilmaga ega bo‘lgan borat eferi hosil bo‘ldi. Ushbu struktura polifunksional bog‘lanishlar, jumladan B–O va C–O tipidagi o‘ziga xos kimyoviy fragmentlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur fazoviy konfiguratsiya molekulaning barqarorligini oshirib, uning sirtga adsorbsiyalanish xususiyatlarini yaxshilaydi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Tarkibida bor saqlagan organik ingibitorning korroziyadan himoyalovchi xususiyatlarini baholashning dastlabki bosqichida uning IQ-spektroskopik tahlillari o‘tkazildi. Tadqiqotlar Yaponiyaning **SHIMADZU** kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan zamonaviy IQ-fyure spektrometrida 400–4000 $sm^{-1}$ diapazonda amalga oshirildi. Mazkur diapazon funksional guruhlar tebranishlarini aniqlash uchun optimal bo‘lib, organik va organo-borli birikmalarning asosiy valent va deformatsion tebranishlarini qayd etish imkonini beradi.

Dastlab spirtlar va borat kislotasi asosida olingan moddani IQ – spektrlari olinib tahlil qilindi (1-rasm).


ISSN 3030-3907




**1-rasm. EGB-2 markali korrroziya ingibitorning IQ spektri**

| Cho‘qqi ($sm^{-1}$) | Funksional guruh | Qisqa izoh |
|---|---|---|
| **3329** | O–H | Vodorod bog‘langan O–H mavjud; spirt qoldig‘i yoki ichki bog‘lanishlar. |
| **2972, 2899** | C–H (alkil) | Molekulada organik alkil zanjirlari mavjud. |
| **1481–1394–1348** | B–O–C / C–O–B | Borat efiri hosil bo‘lganini tasdiqlovchi asosiy signallar. |
| **1223–1203** | C–O / C–O–B | Esterifikatsiya jarayoniga xos; borat efir strukturasini ko‘rsatadi. |
| **1076–1047** | C–O / C–O–B | Murakkab borli organik tuzilmani tasdiqlaydi. |
| **960–873–751–683–567** | B–O deformatsiyasi | $BO_3$/$BO_4$ tipidagi borli fragmentlar mavjud. |

Tadqiqot uchun metall namunalar tayyorlab olindi va GOST 9.905.82 amaldagi talablar bo‘yicha tekis yuzali metall (plita) materiallaridan foydalanish talab etiladi. Tajriba boshlanishidan avvalgi namuna massalari:

Ingibitorsiz muhitda:

$M_1$ =452,6 mg=0,4526g

0,25 % miqdordagi EGB-2 markali ingibitorli muhitda: $M_2$=481,2 mg= 0,4812 g;

0,5 % miqdordagi EGB -2 markali ingibitorli muhitda: $M_3$=437,4 mg=0,4374 g;

0,75 % miqdordagi EGB -2 markali ingibitorli muhitda: $M_4$=408,3 mg=0,5019 g.



ISSN 3030-3907

1 % miqdordagi EGB -2 markali ingibitorli muhitda: $M_4$=465,3 mg=0,4653 g.

Sinov qurilmasidagi atmosfera bosimi 120 soat davomida 4 xil konsentratsiyada amalga oshirildi. Namunalar muhitga joylashtirilgan momentdan boshlab sinov muddati hisobga olinadi. GOST 9.905.82 belgilangan me'yorlarga tayangan holda sinov muddati belgilanadi. Optimal qiymatni topish maqsadida ingibitor konsentratsiyasi bosqichma-bosqich oshirib boriladi va har bir bosqichda sinovlar amalga oshiriladi.Tajribadan keyingi namunalarning massalari:
ingibitorsiz muhitda:
$M_1$=321,5 mg=0,3215g;
0,25% miqdordagi EGB-2 markali ingibitorli muhitda: $M_3$=446,0 mg=0,4460 g;
0,5 % miqdordagi EGB-2 markali ingibitorli muhitda: $M_4$=416,5 mg=0,4165 g;
0,75% miqdordagi EGB-2 markali ingibitorli muhitda: $M_4$=392,7 mg=0,3927 g;
1 % miqdordagi EGB-2 markali ingibitorli muhitda: $M_2$=454,3 mg=0,4543 g;
Bunda namunalarning sirt yuzasi=0,0302-0,0345 $m^2$.

**1-jadval**

**Ingibitorlarning korroziya tezligi va himoya darajalari aniqlash**

| Na'muna raqami | Namuna yuzasi S,$m^2$ | Sinovdan oldingi na'muna massasi M,g | Sinovdan keyingi na'muna massasi M,g | Namuna massasi yo'qotili shi, $M_1$-$M_2$,g | $V_{n.i}$ Ingibitorsiz muhitdagi korroziya tezligi, g/ $m^2$*s | $V_i$ Ingibitorli muhitdagi korroziya tezligi, g/ $m^2$*s | Himoya darajasi (Z)% |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ingibitorsiz | 0,0318 | 0,4526 | 0,3215 | 0,1311 | 0,0343 | - | - |
| 0,25% | 0,0332 | 0,4812 | 0,4460 | 0,0352 | - | 0,0088 | 74,34 |
| 0,5% | 0,0309 | 0,4374 | 0,4165 | 0,0209 | - | 0,0056 | 83,67 |
| 0,75% | 0,0295 | 0,4083 | 0,3927 | 0,0156 | - | 0,0044 | 87,17 |
| 1% | 0,0320 | 0,4653 | 0,4543 | 0,0110 | - | 0,0028 | 91,83 |

Ingibitorlarning korroziya tezligi va himoya darajasi sinov natijalari yordamida aniqlanadi. Ingibitorli muhitda himoya darajalari 0,25%, 0,5%, 0.75%, 1,0% miqdolariga mos ravishda 74,34%, 83,67%, 87,17% va 91,83% larni tashkil qiladi.

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida spirtlar va borat kislotasi asosida **tarkibida bor saqlagan yangi organik korroziya ingibitori** sintez qilindi. Reaksiya jarayonining stoxiometrik nisbatlari, optimal harorat va vaqt sharoitlari aniqlanib,


ISSN 3030-3907

borat efirlarining hosil bo‘lishi IQ-spektroskopik tahlillar orqali tasdiqlandi. Spektrdagi B–O–C, C–O–B, B–O tebranishlarining mavjudligi sintezlangan moddaning murakkab fazoviy tuzilishini ko‘rsatadi hamda uning metall sirtiga adsorbsiyalanish qobiliyatini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Metall namunalarda olib borilgan sinovlar natijalariga ko‘ra, yangi ingibitor 0,25–1,0 % kontsentratsiya oralig‘ida yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Korroziyaning kamayish darajasi 74,34 % dan 91,83 % gacha yetishi moddaning real sanoat sharoitlarida qo‘llash uchun yetarli potensialga ega ekanini isbotlaydi. Olingan natijalar mazkur borli ingibitorning neft va gaz sanoati qurilmalarini korroziyadan himoyalashda istiqbolli kimyoviy reagent ekanligini ko‘rsatadi.

**Sintezlangan ingibitorni sanoat sinovlaridan o‘tkazish** va neft-gaz quduqlari, quvurlari hamda separator tizimlarida qo‘llash imkoniyatlarini kengroq baholash tavsiya etiladi. Ingibitorning **haroratga chidamliligi, yuqori bosim ostida barqarorligi** va turli agressiv muhitlarga ($H_2S$, $CO_2$, xloridlar) nisbatan samaradorligini yanada chuqur o‘rganish zarur. Moddaning **adsorbsiya mexanizmini molekulyar darajada** o‘rganish uchun qo‘shimcha spektroskopik (NMR, Raman) va hisoblash (DFT) tadqiqotlarini olib borish maqsadga muvofiq. Ingibitorning ekologik xavfsizligi va parchalanish xususiyatlarini baholash orqali **atmosfera va suv muhitlariga ta’sirini minimallashtirish** bo‘yicha tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi. Ingibitorni qo‘llash bo‘yicha optimal doza, in’eksiya rejimi, erituvchilar tanlovi va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash maqsadida **texnologik reglament** ishlab chiqish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.B.Obot./ High temperature sweet corrosion and inhibition in the oil and gas industry: Progress, challenges and future perspectives/ 2020, p.3.
2. I.S.O. ISO, 16530-1-Petroleum and Natural Gas Industries — Well integrity — Part 1: Life Cycle Governance, 2017, p. 124.
3. M.A. Quraishi, D.S. Chauhan, Heterocyclic Organic Corrosion Inhibitors: Principles and Applications, Elsevier Inc, Amsterdam, 2020, p.2.
4. Тронова Э./Дисс. Амиды и соли алифатических кислот — ингибиторы коррозии черных и цветных металлов в углеводородных и водных средах/2016, 5-9 с.
5. Эшмаматова Н.Б. Новое поколение ингибиторов коррозии на основе фосфорсодержаших соединений / Композиционные материалы-2011- С-37-39.


ISSN 3030-3907

# AKASIYA (KAROB) URUG‘I XOMASHYOSINING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH VA UNDAN FUNKSIONAL MOY OLISH TEXNOLOGIYASI ILMIY ASOSI

**Mirxodjayeva Dilobar Davronbekovna**
***Renessans universiteti***
**Jabborova Diyora Shuxrat qizining**
***Toshkent kimyo-texnologiya instituti***

**Annotatsiya:** Akatsiya (karob) urug‘ining xom ashyo sifatini baholash mezonlari, uning kimyoviy va fizik xususiyatlari, shuningdek, funksional moy olishda qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Ekstraksiya jarayoni uchun optimal sharoitlarni aniqlash, erituvchilar tanlovi, urug‘larni tayyorlash bosqichlari, moy chiqishiga ta’sir qiluvchi omillar hamda ekstraksiya jarayonining ilmiy asoslari yoritiladi. Olingan natijalar funksional oziq-ovqat qo‘shimchalari ishlab chiqarishda karob moyidan samarali foydalanish imkoniyatlarini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Akatsiya urug‘i, karob moyi, funksional oziq-ovqat, ekstraksiya, xom ashyo sifati, biofaol moddalar.

**Аннотация:** Проанализированы критерии оценки качества сырья плодов рожкового дерева (караб), его химические и физические свойства, а также научные подходы, применяемые для получения функционального масла. Рассматриваются оптимальные условия процесса экстракции, выбор растворителей, этапы подготовки семян, факторы, влияющие на выход масла, и научные основы экстракционного процесса. Полученные результаты подтверждают возможность эффективного использования масла караба при производстве функциональных пищевых добавок.

**Ключевые слова:** Семена рожкового дерева,масло караба, функциональная пища,экстракция, качество сырья, биологически активные вещества

**Abstract:** Analyzes the quality assessment criteria of carob (Ceratonia siliqua) seeds, their chemical and physical properties, as well as the scientific approaches applied for obtaining functional oil. The study discusses optimal extraction conditions, solvent selection, seed preparation steps, factors affecting oil yield, and the scientific basis of the extraction process. The obtained results confirm the feasibility of effective use of carob oil in the production of functional food supplements.

**Keywords:** Carob seeds, carob oil, functional food, extraction, raw material quality, bioactive compounds

## Kirish

So‘nggi yillarda jahon oziq-ovqat sanoatida funksional komponentlarga boy bo‘lgan o‘simlik moylariga talab keskin ortmoqda. Xalqaro bozor tahliliga ko‘ra



ISSN 3030-3907

(FAO, 2024), antioksidantlarga boy tabiiy moylar bozori yiliga 12–15% oshib bormoqda. Ayniqsa, polifenollar, tokoferollar, to‘yintirilmagan yog‘ kislotalariga boy bo‘lgan o‘simlik urug‘lari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

Akasiya (karob) O‘rta Yer dengizi mintaqasida qadimdan o‘suvchi o‘simlik bo‘lib, uning urug‘i tarkibida galaktomannan, flavonoidlar, polifenollar, tokoferollar va qimmatli yog‘ kislotalari mavjud. Karob urug‘i asosida yuqori barqaror, oksidlanishga chidamli, parhezbop moy olish texnologiyasini yaratish bugungi kunda funksional oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar uchun strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Shu sababli karob urug‘ining xom ashyo sifatini baholash, kimyoviy-fizik ko‘rsatkichlarini aniqlash, yog‘ ajratish uchun optimal sharoitlarni belgilash ilmiy jihatdan aktual masala bo‘lib, tadqiqotning asosiy maqsadi ham aynan ushbu texnologiyani ilmiy asoslashdan iborat.

**Karob urug‘ining fizik ko‘rsatkichlari:** Karob urug‘i sifat ko‘rsatkichlari xalqaro standartlar (ISO 665:2020 — Oilseeds determination of moisture content; ISO 659 - determination of oil content) bo‘yicha aniqlanadi.

**Namlik miqdori**

- Optimal: **6–8%**
- Namlik 10% dan oshsa, oksidlanish tezlashadi, mog‘orlanish xavfi ortadi.
- Past namlik (5% dan past) maydalashni qiyinlashtiradi.

**Zichlik**

Urug‘larning o‘rtacha zichligi **1,15–1,25 g/sm³**. Bu ko‘rsatkich ekstraksiya jarayonidagi erituvchi bilan kontakt yuzasini belgilaydi.

**Urug‘ yuzasi va morfologiyasi**

Karob urug‘lari qattiq, silliq qobiq bilan o‘ralgan bo‘lib, endospermning 40–45% ini galaktomannan tashkil etadi. Qattiq qobiqni buzish ekstraksiya samaradorligini 25–30% oshiradi.**Maydalash darajasi**

Tadqiqotlar ko‘rsatadi

1,5 mm zarracha — moy chiqishi 17–19%

0,5–1,0 mm zarracha — moy chiqishi 22–28%

**Urug‘ning biologik yetukligi**

